جديد

2026-yil 16-oktyabr
№ 42 (146)
www.jadid.uz

Tilda, fikrda, ishda birlik!

Jadid

adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

@Jadidrasmiy @Jadidmediauz @Jadidrasmiy @Jadid_uz

“Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak”.

Shavkat MIRZIYOYEV

YETTIKUNLIK

QAT’IY KAFOLAT

O‘tayotgan hafta O‘zbekiston Respublikasining ichki taraqqiyoti va tashqi siyosiy maydondagi nufuzini yangi bosqichga olib chiqqan muhim va sermazmun voqealarga boy bo‘ldi. 12-oktyabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi Toshkent qurilishini jadallashtirish bo‘yicha investorlar bilan ochiq va tanqidiy muloqot o‘tkazgan bo‘lsa, 14-15-oktyabr kunlari amaliy tashrif bilan Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash (OHICHK) sammitida ishtirok etdi hamda qator strategik kelishuvlarga erishildi. Mazkur ikki yirik tadbir bir-birini mantiqan to‘ldiradi. Mamlakat ichida iqtisodiy qudrat va qulay sarmoyaviy muhit shakllantirilsa, tashqi arenada ishonchli diplomatik aloqalar va mustahkam logistika koridorlari barpo etilmoqda.

* * *

Poytaxtimizning bosh shaharsozlik megaloyihasi – Yangi Toshkent qurilishi yangi, strategik va pragmatik bosqichga qadam qo‘ydi. Prezidentimiz yangi inshootlarni ishga tushirish marosimida qatnashib, loyihani amalga oshirayotgan sarmoyador va tadbirkorlar bilan yuzma-yuz ochiq muloqot qildi. Uch yil avval tamal toshi qo‘yilgan hududga infratuzilma, stadion, universitet va kutubxona qurilishi uchun 2 milliard dollardan ziyod mablag‘ yo‘naltirildi.

Ichki siyosatdagi ana shunday shiddatli qadamlardan so‘ng Prezident Shavkat Mirziyoyevning Boku shahrida bo‘lib o‘tgan OHICHK sammitidagi ishtiroki mamlakatimizning tashqi siyosatidagi faolligini yana bir bor isbotladi. 1992-yilda BMT Bosh



Assambleyasida ilgari surilgan tashabbus asosida shakllangan, bugungi kunda 28 ta davlatni birlashtirgan OHICHK Osiyoda tinchlik va ishonch muhitini yaratishda muhim platformaga aylandi. Undan ko‘zlangan asosiy maqsad Osiyoda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish va davlatlar o‘rtasida ishonch muhitini shakllantirishdan iborat bo‘lgan.

O‘tgan davr mobaynida tashkilot bosqichma-bosqich rivojlanib, xavfsizlik, iqtisodiyot, ekologiya va gumanitar hamkorlik bo‘yicha mintaqaviy muloqot maydoniga aylandi. O‘zbekiston OHICHKning ta’sischi davlatlaridan biri sifatida tashkilot faoliyatida faol ishtirok etib kelmoqda. Ayniqsa, 2017-yildan keyin mamlakatimizning ushbu tashkilotdagi o‘rni yanada ortdi.

2019-yilda Dushanbe, 2022-yilda esa Ostona shaharlarida o‘tkazilgan OHICHK sammitlarida Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev yuzaga kelayotgan yangi geosiyosiy voqeliklarni hisobga olish, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va iqtisodiy aloqalarni kengaytirish borasida qator tashabbuslarni ilgari surdi. Mazkur uchrashuvlarda bildirilgan taklif va tashabbuslar tashkilotning kelgusi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlash borasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda Osiyo xalqaro siyosat va jahon iqtisodiyotining muhim markazlaridan biriga aylanmoqda. Mintaqada geosiyosiy raqobatning kuchayishi, qurolli mojarolar, terrorizm, transmilliy jinoyatchilik, iqlim o‘zgarishi, suv va oziq-ovqat xavfsizligi, raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq yangi tahdidlar davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishni taqozo qilmoqda. Bunday sharoitda OHICHKning ahamiyati yanada ortadi.

(Davomi 2-sahifada).

BUGUNNING SHE’RI

Shahriyor SHAVKAT

ARUG‘ TURKU

Totlig‘ tilim, qutlug‘ tilim, o‘tlig‘ tilim,
Eltarishxon toshga bitgan yorlig‘imsan!
Chopqir tilim, o‘tkir tilim, keskir tilim,
Bilga xoqon boshda tutgan borlig‘imsan!
Yaroq yanglig‘ yarqiratgan yovqur elim –
O‘zbek tilim!

Oldin o‘zing, ontim o‘zing, oltin o‘zing,
“Oltun yoruq” birla yuzim etgan yorug‘.
Bug‘ro o‘zing, tug‘ro o‘zing, yug‘ro o‘zing,
Qoshqarlidan bizga tegru yetgan yo‘riq –
Keltiribsan teran o‘git, qutlug‘ bilim,
O‘zbek tilim!

Tiriklayin yongan sayin o‘chmoq qiyin –
“Qush tili”ni unutganga bitmas qanot.
Temurdayin, Boburdayin gumburlayin,
Ulug‘bekdek yulduzlarga qo‘yguncha ot,
Sen deb yonay sovrilguncha ko‘kka kulim,
O‘zbek tilim!

O‘zing borsan – ko‘ngil butun, tillar uzun,
Ko‘zlar tiniq, so‘zlar iliq, yolvorish yo‘q.
Yo‘qsa, aniq ostin-ustun bo‘lur ochun –
Ko‘zlar sovuq, yuzlar sariq, yovlar yovuq,
Senga qulluq, oydan to‘lin, soydan so‘lim –
O‘zbek tilim!

Bizga dovrug‘ – dovyurak shu eldan bo‘lish,
Tikan o‘ssa, kishan to‘ssa, yo‘ldan olish,
Ketar bo‘lsa, boshim bilan ketsin tilim,
Bitmas yumush, ketmas qarg‘ish – tildan qolish,
Sendan ayri tushsa yo‘lim shudir o‘lim,
O‘zbek tilim!

Arug‘ *– (qadim turkiyda) toza, sof, halol.*

TALQIN

MILLAT BARQARORLIGI GAROVI

Insoniyat tarixi, jamiyatlar tamadduni shuni isbotlaydiki, millat va mustaqil davlat uning milliy tili borligi uchun mavjuddir. Yana ham soddaroq aytganda, o‘zbek tili borligi uchun o‘zbeklar va ozod O‘zbekiston bor. Binobarin, buyuk ma’rifatparvar Abdulla Avloniy ta’biri bilan aytganda, milliy tilni yo‘qotmoq – millat ruhini, demakki, xalq-u davlatni yo‘qotmoq bilan barobardir. Bu haqiqatni chuqur anglab yetgan ajdodlarimiz asrlar davomida ona tilimiz birligi va rivoji uchun kurashib keldilar. Bundan qariyb ming yil oldin Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘atit turk” asari orqali qadimiy til sifatida o‘zbek tili yashash va taraqqiy qilishga qodir ekanini isbotlab berdi.

(3-sahifada o‘qing).

KELAJAK OVOZI


SHOHSUPADA AKBARSHOH

Shu kunlarda yurtdoshlarimiz katta g‘alaba quvonchi va bayram kayfiyati bilan nafas olmoqda. Janubiy Koreyaning Inchxon shahrida o‘tkazilgan nufuzli “First Global Challenge” robototexnika musobaqasida O‘zbekiston terma jamoasi chinakam tarixiy natijaga erishdi. Vakillarimiz 3 ta oltin medalni qo‘lga kiritib, umumiy hisobda faxrli birinchi o‘rinni egalladi.



(Davomi 8-sahifada).

HAMKORLIK



QADRIYATLARDA MUJASSAM UYG‘UNLIK

O‘zbekiston va Malayziya bir-biridan geografik uzoqlikda joylashgan bo‘lsa-da, qadim zamonlardan buyon bu ikki mamlakatni tarixiy aloqalar, madaniy va diniy umumiylik, bag‘rikenglik, an’ana va urf-odatlarning yaqinligi kabi umumiy qadriyatlar va jamiyatdagi xilma-xillik bir-biriga bog‘lab keladi. Bularning hammasi uzoq yillar davomida ikki davlatni vaqt sinovidan o‘tgan va hozirgi vaqtda ham yaqin sherikchilik aloqalarini amalga oshirayotgan hamkorlarga aylanishiga olib kelgan. Shunisi ahamiyatliki, har ikki davlat qadimdan strategik ahamiyatga ega bo‘lib kelgan xalqaro savdo yo‘llari chorrahasida joylashgan. Malakka yarim oroli jahon savdosining muhim yo‘lagi sifatida mashhur shu nomdagi bo‘g‘izda joylashgan bo‘lsa, O‘zbekiston hududi qadimdan Osiyo va Yevropani o‘zaro bog‘lagan Buyuk Ipak yo‘lining markaziy qismini tashkil etgan.

(4-sahifada o‘qing).

FAKT

- **O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Boku sammiti doirasida Vyetnam, Laos va Qatar rahbarlari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi.**
- **Prezident Administratsiyasi rahbari Saida Mirziyoyeva Turkiya Prezidenti Rajab Toyyib Erdo‘g‘an bilan uchrashib, Shavkat Mirziyoyevning ezgu, samimiy tilaklarini yetkazdi.**
- **17–22-oktyabr kunlari AQSH davlat kotibi Marko Rubio Samarqandda C5+1 formatidagi vazirlar uchrashuvida ishtirok etadi. U O‘zbekistonga tashrifi davomida 200 dan ortiq biznes rahbaridan iborat AQSH tijorat delegatsiyasiga boshchilik qiladi.**
- **O‘zbekistonning Qatardagi, o‘rindoshlik asosida JAR va Efiopiyadagi elchisi Ashraf Xo‘jayev 14-oktyabr kuni Afrika Ittifoqi Komissiyasi raisi Mahmud Ali Yusufga ishonch yorliqlarini topshirdi.**

O‘Y

TIL DILNI ANGLATSIN

Bola edim. Bir o‘rta yashar, qotma odamni eslayman. Sipo kiyinar, bozorga kelib, balandroq joyda turganicha, qo‘llarini siltab-siltab, hech kim quloq solmayotgan bo‘lsa ham uzoq gapirar, ammo gapini anglab bo‘lmasdi. Bugun ayrim “savodli jinni”larni ko‘rganimda, o‘sha odam xayolimga keladi. Bir farqi – u kishi nima degani balki o‘ziga ayon bo‘lgandir, biroq bu “yangi”lar o‘z gapiga o‘zi ham tushunmasa kerak. Ming yillar osha ong-tafakkurimizni biyron ifoda qilib kelgan tilimiz bugun g‘o‘ldir-g‘o‘ldir qilib qolayotgan shunday hollar borki, razm solgan kishi qo‘rqib ketishi turgan gap.

(5-sahifada o‘qing).

QAT’IY KAFOLAT

Boshlanishi 1-sahifada.

Tashkilot siyosiy muloqotni rivojlantirish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash va umumiy muammolarni tinch yo‘l bilan hal etish bo‘yicha muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Boku sammiti esa tarixiy voqea sifatida qaralmoqda: aynan ushbu yig‘ilishda forumning maslahatlashuv ko‘rinishidan to‘laqonli xalqaro tashkilotga aylanishi va uning institutsional asoslarini mustahkamlash masalasi hal qilindi. Ozarbayjon raisligida o‘tgan tadbirda qabul qilingan Boku deklaratsiyasi xavfsizlik, transport bog‘liqligi, raqamlashtirish va barqaror iqtisodiy o‘sishni qamrab oldi.

Dunyodagi mavjud murakkab geosiyosiy vaziyat sharoitida har tomonlama samarali qarorlar qabul qilish alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, Boku sammiti davlatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash va OHICHKning zamonaviy tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib javob berishida juda muhim.

Ozarbayjonning 2024–2026-yillardagi raisligi davrida ushbu jarayonga alohida e’tibor qaratilmoqda. Boku tomonidan ilgari surilgan “Kuchli OHICHK: Osiyoda o‘zaro bog‘liqlik, raqamlashtirish va barqaror o‘sish” shiori tashkilotning kelgusi rivojlanish ustuvorliklarini ifodalaydi.

Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash faqat siyosiy kelishuvlar bilan cheklanmaydi. Davlatlar o‘rtasida savdo, investitsiya, transport va texnologik aloqalarning rivojlanishi ham mintaqaviy barqarorlikning muhim omilidir. Shu ma’noda, Ozarbayjon raisligi davrida transport bog‘liqligi va raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston 2022-yilda Ostonada o‘tkazilgan sammitda Afg‘oniston bo‘yicha yuqori darajali xalqaro muzokaralar guruhini tashkil etish, “Avlodlar muloqoti” formatini yo‘lga qo‘yish va transport bog‘liqligini rivojlantirish



tashabbuslarini ilgari surdi. Davlatimiz rahbarining raqamlashtirish va innovatsiyalar sohasida hamkorlikni kengaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda “Yashil Osiyo” dasturi doirasida muntazam ekspertlar maslahatlashuvlarini o‘tkazish kabi tashabbuslari ham katta qiziqish uyg‘otdi. 2023-yil oktyabr oyida Samarqandda OHICHK Yoshlar kengashining yig‘ilishi doirasida “Avlodlar muloqoti”ning ilk bor o‘tkazilgani ushbu takliflarning amaliy mazmun kasb etayotganini ko‘rsatdi.

O‘zbekistonning OHICHK doirasidagi ustuvor manfaatlari, avvalo, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, Afg‘oniston masalasi bo‘yicha muloqotni rivojlantirish, transport-tranzit imkoniyatlarini kengaytirish, oziq-ovqat va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda raqamli texnologiyalar sohasida hamkorlikni kengaytirish bilan bog‘liq. Shu nuqtayi nazardan, Boku sammiti O‘zbekiston uchun milliy va mintaqaviy manfaatlarga mos tashabbuslarni ilgari surish, hamkor davlatlar bilan amaliy kelishuvlarga erishish hamda OHICHKning tizimli rivojlanishida faol ishtirok etish imkoniyatini yaratdi.

2027-yilda Toshkentda inson huquqlari va sun’iy intellekt masalalariga bag‘ishlangan OHICHK yuqori darajali forumini o‘tkazish rejasi mamlakatimizning inson manfaatlariga yo‘naltirilgan tashabbuslarni rivojlantirayotganidan dalolatdir. Mazkur tashabbusni inson huquqlarini himoya qilish, sun’iy intellektdan xavfsiz va maqsadli foydalanish hamda inklyuziv raqamli taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy muloqotni kuchaytirishning samarali vositasi sifatida takomillashtirish mumkin.

Boku sammitida O‘zbekiston uchun eng maqbul yondashuv – OHICHKning tashkiliy-huquqiy transformatsiyasini qo‘llab-quvvatlash va uning amaliy natijasiga ustuvor ahamiyat qaratishdir. Buning uchun transport, raqamlashtirish, inson huquqlari, yoshlar siyosati va ekologik xavfsizlik sohalaridagi hamkorlikni aniq loyihalar, ekspertlar muloqoti va muntazam tajriba almashish mexanizmlari bilan boyitish muhim.

Bokuda bo‘lib o‘tgan OHICHK sammiti Osiyoda ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va tashkilotning kelgusi taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilash nuqtayi nazaridan muhim siyosiy voqea bo‘ldi. O‘zbekiston uchun ushbu sammit mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, transport-tranzit imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli va ekologik hamkorlikni rivojlantirish hamda inson manfaatlariga yo‘naltirilgan tashabbuslarni ilgari surish nuqtayi nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, Davlatimiz rahbari ko‘proq ayni yo‘nalishlarda taklif va tashabbuslarni ilgari surdi.

Tashrif doirasida Shavkat Mirziyoyev va Ilhom Aliyev o‘rtasidagi muzokaralar ikki qardosh davlat o‘rtasidagi strategik ittifoqchilikni yanada mustahkamladi. Joriy yilning avgustida imzolangan “Abadiy do‘stlik to‘g‘risida”gi shartnoma hamda qiymati 5 milliard dollardan ziyod loyihalar portfeli endilikda aniq amaliy natijalar bilan boyimoqda. O‘zbekiston tomonidan Fuzuliyda qurilgan Mirzo Ulug‘bek nomidagi zamonaviy maktab va Xonkandidagi tikuvchilik fabrikasi allaqachon faoliyat yuritmoqda. Bokuda Qorabog‘ni birgalikda rivojlantirish va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish bo‘yicha yangi hujjatlar to‘plami imzolandi.

Avgust oyida Ozarbayjon yetakchisi Ilhom Aliyevning davlat tashrifi chog‘ida Toshkentning mintaqani qayta tiklash va ish o‘rinlari yaratishga qo‘shayotgan hissasini alohida qayd etdi. Yangi kelishuvlar ushbu ishlarni davom ettirishi mumkin bo‘lib, bunda iqtisodiy ishtirok ayni paytda Bokuni siyosiy qo‘llab-quvvatlash belgisi ham hisoblanadi.

* * *

Yangi Toshkentda sarmoyadorlarga yaratilayotgan sharoitlar va mustahkam kafolatlar milliy iqtisodiyotimizni ichkaridan baquvvat qilsa, Bokudagi kelishuvlar va OHICHKdagi ishtirok milliy mahsulotlarimiz hamda salohiyatimizning jahon bozorlariga chiqishi uchun mustahkam ko‘priklar barpo etmoqda. Siyosiy ittifoqchilik va iqtisodiy pragmatizm uyg‘unligi xalqimiz farovonligining bosh omili bo‘lib qolaveradi.

Iqbol MIRZO

TAHLIL VA TAVSIYA

“TILGA E’TIBOR – ELGA E’TIBOR”





Til xalqlar va madaniyatlarni bir-biriga bog‘laydigan eng muhim diplomatik ko‘prikdir. Xorijiy tilni o‘rganish orqali o‘sha xalqning tarixi, madaniyati, adabiyoti va bugungi hayoti bilan yaqindan tanishish mumkin. Boy tarix va merosga ega bo‘lishiga qaramay, o‘zbek tilini chet elda targ‘ib qilish hanuz oqsayapti. Tarixan turkiy, xoqoniy va chig‘atoy tili deb atalgan jonajon tilimiz 1920-yillardan boshlab rasman “o‘zbek tili” nomini oldi. U bugun Markaziy Osiyodagi eng ommabop, dunyo bo‘ylab qirq milliondan ortiq inson so‘zlashadigan til hisoblanadi.

Chingizxon bosqiniga qadar “asl turkiy til” nomi bilan mashhur bo‘lgan tilimiz Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘atit-turk” asarida xoqon saroyi va davlat ishlarida qo‘llanilgan “xoqoniy” til sifatida alohida e’tirof etilgan. Unda ilk turkiy she’rlar va rasmiy hujjatlar bitilgan, Alisher Navoiyning shoh asarlari ham shu daryodan suv ichgan. XX asrgacha Sharqda ilm-fan, din va adabiyot zaboni sifatida arab hamda fors lisonlari yetakchilik qilgani bois, G‘arbda ham aynan shu tillarni o‘rganishga qiziqish yuqori bo‘lgan. Mumtoz o‘zbek tili esa mintaqadan tashqarida keng yoyilmay qoldi. Mustaqillik yillarida tilimizni jahonga tanitish uchun keng imkoniyatlar ochilgan bo‘lsa-da, dastavval o‘tgan davr mobaynida bu borada sezilarli natijaga erishilmadi.

O‘zbek tili va adabiyotini chet elda o‘qitish hamda undan “yumshoq kuch” sifatida foydalanishda qator tizimli muammolar mavjud. Bugungi kunda xorijiy tilni o‘rganuvchilarning asosiy qismi ma’lumotlarni internetdan, asosan, inglizchada izlaydi. Afsuski, o‘zbekchani o‘rganmoqchi bo‘lgan xorijliklar uchun zamonaviy talablarga javob beradigan darsliklar juda kam. Ularning aksariyati rus tilida yozilgani uchun xorijliklarga murakkablik qiladi. Natijada, chet elliklar tilimizni o‘rganishdan oldin rus tilini o‘zlashtirishga majbur bo‘lyapti, bu esa ulardagi qiziqishni so‘ndiradi. Vaholanki, ingliz va boshqa ommabop til darsliklari mutlaqo boshqacha tizimga asoslanadi.

Xususan, darslar soddadan murakkabga qarab tuzilib, kitoblar A1, A2, B1, B2, C1 va C2 kabi xalqaro darajalarga ajratiladi. Bunda faol ishlatiladigan so‘zlar, kishilik olmoshlari, sonlar, fe’l zamonlari va gap qurilishi alohida-alohida o‘rgatiladi. Boshlang‘ich bosqichda asosiy e’tibor kundalik muloqotda eng ko‘p qo‘llanadigan iboralarga qaratilib, o‘rganuvchilar uchun bir ming, ikki ming hamda besh mingta asosiy so‘zni o‘z ichiga olgan maxsus lug‘atlar taqdim etiladi. Xalq orasida keng qo‘llanadigan iboralar o‘rgatiladi. O‘zbek tili qoidalarini o‘rgatishga mo‘ljallangan kitoblarda esa qator jihatlarga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

Masalan, o‘zbek tili alifbosidagi “a” va “i” harflari ingliz tilida maxsus transkripsiyalar bilan beriladi. Rus tilidagi “она” (“u ayol”) va o‘zbek tilidagi “ana” (“mana”, “anavi”) so‘zlari ham turlicha talaffuz qilinadi. Noma’lum sabablarga ko‘ra, /ɪ/ tovushi o‘zbek tilida alohida tovush emas, qisqa “i” deb ataladi, ammo turk, ingliz, xitoy va boshqa ko‘plab tillarda u alohida tovush sifatida o‘qitiladi. Fe’l zamonlari qaysi hollarda qo‘llanishi bo‘yicha ham ma’lumotlar kam. Masalan, hozirgi o‘zbek adabiy tiliga oid aksar kitoblarda uzoq o‘tgan zamon fe’lini tushuntirishda fe’lning “-gan” shakli “-di”ga nisbatan harakatning nutq so‘zlangan vaqtdan ancha oldin ro‘y berganini bildirishi” ta’kidlangan. Albatta, bu ta’rif ba’zi hollarda mos kelsa-da, xorijliklar ko‘zi bilan qaralganda, ko‘p holda chalg‘itadi. “O‘zbekiston 1991-yilda mustaqil bo‘ldi” jumlasida voqea bundan 35 yil oldin bo‘lgani haqida so‘z yuritilmoqda. “Shuhrat uyga kelgan” jumlasida Shuhrat hozir uydaligi ifodalangan (hozirgi zamon ma’nosi). Bu holda voqea ancha oldin emas, besh daqiqa oldin sodir bo‘lishi ham mumkin.

O‘tgan zamon hikoya fe’li o‘zbeklar orasida ommalashmagan va ko‘pchilik uchun tushunarsiz, lekin grammatika kitoblarida u mavjud. Shunday ekan, “qilib edi” kabi fe’llarning qo‘llanishi va o‘qitilishi qayta ko‘rib chiqishga muhtoj. Uzoq o‘tgan zamon hikoya fe’li “qilgan ekan” shaklida tushuntiriladi, ammo “qilmoqchi ekan”, “qilyapti ekan” kabi shakllarga izoh berilmaydi. Tushum kelishigini yasovchi “-ni” qo‘shimchasi ba’zi hollarda tushirib qoldirilishi mumkin. Masalan, “Menga kitob bering” yoki “Menga kitobni bering”. Ammo bu holatlar farqi tushuntirilmasligi til o‘rganuvchini chalg‘itadi.

Hind-Yevropa tillaridan farqli o‘laroq, turkiyda qo‘shimchalar nihoyatda keng qo‘llanadi va tilning eng asosiy qismlaridan hisoblanadi. Lekin bu masalaga kam e’tibor qaratiladi. Imkon qadar barcha qo‘shimchalar, jumladan, yangi grammatik ma’no beruvchi qo‘shimchalarga alohida urg‘u berilishi o‘rganuvchiga yengillik yaratadi. Shuningdek, turkiy tillarda oddiy fe’llardan ko‘ra ko‘proq va kengroq qo‘llanadigan qo‘shma fe’llarni batafsil tushuntirish, lug‘atda alohida ko‘rsatish foydalidir. Odatda xorijiy tilni o‘qituvchi grammatika kitoblariga faol so‘zlarni o‘z ichiga oluvchi mini-lug‘at ilova qilinadi. Ammo o‘rganib chiqilgan o‘zbek tilini o‘qituvchi qo‘llanmalarda mini-lug‘at bo‘lsa-da, unda faol so‘zlar emas, biron mantiqqa asoslanmay “duch kelgan” so‘zlar jamlangan. Bu ham chet ellik uchun sezilarli qiyinchilik tug‘diradi.

Ushbu jihatlar inobatga olingan holda, mustaqil o‘rganuvchi xorijliklar uchun ingliz tilida “O‘zbek tili grammatikasi” nomli qo‘llanma tayyorlandi. Unda o‘rganuvchiga yengillik yaratish maqsadida, fonetika va grammatika qoidalari qiyosiy taqqoslanadi. O‘zbek tili grammatikasiga oid kitoblarda fe’l zamonlarining ishlatilish hollari minimal tarzda tushuntirilgani bois, taklif etilayotgan darslikda bu masalaga alohida e’tibor qaratildi.

Yuqorida keltirilgan muammoli vaziyatlarni chuqur o‘rganib hamda akademik bahslar va tadqiqotlar asosida xorijiy tillar tajribasidan kelib chiqib, o‘zbek tili grammatikasini isloh qilish lozim, deb hisoblaymiz. Fikrimizcha, fe’l zamonlarini o‘qitishda ularni kategoriyalarga ajratib tushuntirish imkoniyatini ko‘rib chiqish kerak. Taklif etilayotgan darslikda fe’l zamonlari jadval asosida shakllarga ajratilgan. Shuningdek, qo‘llanmada “-ni” qo‘shimchasining ishlatilishi va tushirib qoldirilishi, barcha faol va ba’zi nofaol zamonlarning qo‘llanish holatlari, qo‘shma fe’llarning yasalishi, qo‘shimchalar vazifasi kengroq tushuntiriladi. Boshqa qo‘llanmalardan farqli ravishda, kitobning asosiy qismidagi yigirmata darslar yirik mavzularni alohida-alohida to‘liq tushuntirishga emas, balki xorijiy tilni o‘rganish uchun eng zarur bo‘lgan qoida va konstruksiyalarni o‘rgatishga bag‘ishlanadi, keyinchalik mavzular murakkablashib boradi. O‘zbek tilida fe’l zamonlarini tushunish xorijliklar uchun nisbatan murakkabligini inobatga olib, ular ingliz tiliga qiyoslab sodda ko‘rinishda tushuntiriladi. Har bir dars so‘ngida qisqa mashq va matnlar keltirilgan.

Ma’lumki, xorijiy tilni o‘rgangan shaxs tegishli davlatga borganida, rasmiy til va xalq qo‘llaydigan so‘zlashuv o‘rtasidagi farq tufayli, tilni tushunishda qiyinchilikka uchraydi. Shuni inobatga olib, o‘zbek tili shevalari va ularning farqlari tushuntirilgan hamda xalq orasida ishlatiladigan, lekin adabiy tilga kiritilmagan ba’zi keng foydalaniladigan o‘zlashgan so‘zlar ham kitobga ilova qilingan. Tilimizni she’r va qo‘shiqlar, yurtimiz tarixiga oid qiziqarli matnlar hamda 2400 ta eng faol so‘zni o‘z ichiga olgan ilk o‘zbekcha-inglizcha mini-lug‘at orqali o‘rgatish yangi qo‘llanmaning bosh afzalligidir.


Bugun tilimizni xalqaro miqyosda ommalashtirishda sifatli darsliklar va xorijiy tillarda erkin dars beradigan mutaxassislarning yetishmasligi hanuz asosiy to‘siq bo‘lib qolmoqda. Qolaversa, xorijlik talabalar uchun til o‘rganishda kelajakda yaxshi ish topish imkoniyati birlamchi o‘rinda turadi. Masalan, fors adabiyotiga dunyo bo‘ylab qiziqishning yuqoriligi asarlarning o‘z vaqtida mahorat bilan tarjima qilingani bilan bog‘liq bo‘lsa, Alisher Navoiy kabi buyuk mutafakkirlarimiz merosining chet tillariga o‘girilmagani tilimiz va adabiyotimizning jahon sahnasida lozim darajada tan olinishiga xalaqit beryapti. Bu yerda asosiy muammo Navoiy asarlarini tarjima qila oladigan salohiyatli mutaxassislarning yo‘qligidir. Chunki bunday tarjimon nafaqat zamonaviy va eski o‘zbek tilini, balki arab, fors tillari, tasavvuf va Sharq falsafasini mukammal biladigan, o‘z ona tilida mohirona qalam tebratuvchi universal olim bo‘lishi lozim. Buning ustiga, ochiq manbalarda ingliz yoki arab tillarida Navoiy haqida sifatli ma’lumot va filmlarning yo‘qligi xorijiy navoiyshunoslarni yetishtirishni yanada qiyinlashtirmoqda.

Ushbu masalani hal etish tizimli yondashuvni talab etadi. Masalan, Misrda eski o‘zbek tilini tadqiq etayotgan olimlar juda kam va ularning bilim darajasi hanuz sayoz. Bu muammoni ijobiy hal etish uchun O‘zbekistondagi oliy ta’lim muassasalariga arab tilidan dars berish uchun aynan turkiy tillar bo‘yicha izlanayotgan misrlik tajribali professor-olimlarni jalb qilish maqsadga muvofiqdir. Bunday mutaxassislar salohiyatidan unumli foydalanish orqali mumtoz adabiyotimizni arab tiliga sifatli tarjima qilish, xorijdagi qadimiy qo‘lyozmalarni tadqiq etish va tilimiz jozibasini dunyoga yoyishda kutilgan natijaga erishish mumkin.

O‘zbek tilini xorijda o‘qitish va ommalashtirish yuzaki yondashuvni emas, balki tizimli dasturni talab etadi. Buning uchun, avvalo, xorijliklar uchun ularning ona tilida tushunarli bo‘lgan soddalashtirilgan qo‘llanmalar va sifatli lug‘atlar yaratish zarur. Qisqa muddatli istiqbolda chet ellik turkshunos olim va professorlarni mamlakatimizga jalb etish, ularga o‘zbek adabiyotshunoslarini biriktirib, erkin faoliyat yuritishlariga sharoit yaratish lozim. Uzoq muddatda esa yurtimizda ishlab, madaniyatimizga mehr qo‘ygan bunday mutaxassislar orqali mumtoz va zamonaviy shoh asarlarimizni chet tillariga mahorat bilan tarjima qilishga erishish mumkin.

Shu bilan birga, o‘zbek diplomatiyasining muhim vazifalaridan biri sifatida, paritet tamoyili asosida xorijiy maktab va universitet darsliklariga Navoiy, Bobur, Qodiriy kabi buyuk adiblarimiz hayoti va asarlarini kiritish tavsiya etiladi. Zero, adabiy merosimizning dunyo bo‘ylab sifatli tarjima qilinishi va keng yoyilishi mamlakatimizning jahon maydonidagi “yumshoq kuch”ini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Otabek ALIMOV,
tarjimon



Har bir millatning dunyoda borlig‘ini ko‘rsatadurg‘on oynayi hayoti til va adabiyotdir.

Abdulla AVLONIY

MILLAT BARQARORLIGI GAROVI



Nig‘matilla YO‘LDOSHEV,
O‘zbekiston Respublikasi
Bosh prokurori

Boshlanishi 1-sahifada.

Yusuf Xos Hojib “Qutadg‘u bilig” dostonini yaratish asnosida tilimizning mavqeyini oshirish, uning madaniy-adabiy hayotdan munosib o‘rin egallashi uchun kurashdi.

550 yil avval Hazrat Alisher Navoiy o‘zining mangulikka daxldor asarlari bilan bugungi o‘zbek adabiy tiliga asos soldi. U 1499-yilda yozgan “Muhokamatul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) asari va boshqa barcha turkiy nazm hamda nasrlari bilan “o‘zbek tili boshqa tillar oldida ojiz, u qo‘pol, harbiy sohagagina mos”, degan safsata va uydirma, eng muhimi, tuhmatlarni yo‘qqa chiqardi.

XX asr boshidagi jadidlar ona tilini milliy uyg‘onish, davlatchilik va o‘zlikni anglashning eng muhim poydevori sifatida baholaganlar. Jadidlar ta’lim tizimini isloh qilib, boshlang‘ich ta’limni albatta ona tilida olib borish kerakligini qat’iy talab qildilar. O‘z navbatida, jadidlarning peshqadamlaridan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy millat taraqqiyoti uchun birgina emas, bir nechta tilni bilish lozimligini yoqlab chiqdi. Shuning barobarida, u tilning sofligi uchun zarur bo‘lgan vazifalarni ko‘rsatib o‘tdi. Abdurauf Fitrat tilimizning naqadar boy, mukammal va tarixiy ildizlari chuqur ekanini ilmiy jihatdan isbotlab berdi. Birgina misol: u o‘zbek tilidagi “bil” degan o‘zakdan qariyb 100 ta so‘z yasash mumkinligini aniq isbotladi. Keyinchalik u o‘zbek tili grammatikasiga oid ilk darsliklarni ham yaratdi. O‘z safida Cho‘lpon, Qodiriy va boshqa buyuklarni jamlagan, 1918-yilda tuzilgan “Chig‘atoy gurungi” tashkilotining a’zolari ham ona tilimiz barqarorligi uchun jonkuyarlik qildilar. Mutaxassislarning xulosasiga ko‘ra, jadidlarning til borasidagi asosiy maqsadlari: turkiy xalqlar o‘rtasida umumiy va tushunarli adabiy tilni yaratish; o‘zbek tilini faqat maishiy emas, balki fan, matbuot, siyosat va zamonaviy texnika tiliga aylantirish; eng muhimi, tilni mustabid tuzum va ortiqcha tashqi ta’sirlardan asrab, xalqning o‘zligini qaytarish edi.

Biroq, mustabid davrda millat ruhini milliy til vositasida ko‘tarishga urinishlar shafqatsizlarcha bostirildi. Qatag‘on yillarida ko‘plab ma’rifatparvar, ziyoli insonlar aynan ona tili taqdiri uchun qayg‘urgani sababli, “millatchi” tamg‘asi bilan qatl qilindi.

Ona tilimizda bitilgan minglab durdona asarlar yoqildi, til ravnaqiga xizmat qiluvchi dargohlarga o‘t qo‘yildi. Bunday jaholat va razolat prokuratura xodimlarini ham chetlab o‘tmadi. Xalqni zulmatdan chiqarish va adolat yo‘lida fidoyilik qilgan qariyb 200 nafar prokuratura xodimi qatag‘on qurboni bo‘ldi. Bunday siyosat bosqinchilik va mustamlakachilikning sinalgan usuli edi, chunki ona tilidan faxrlanib, uni qadrlay boshlagan millatni uzoq vaqt tutqunlikda ushlab turish mumkin emas edi. O‘z navbatida, mustamlaka zanjiridan xalos bo‘lishga intilish birinchi navbatda milliy tilga e’tibor va hurmatdan boshlanadi. Mustabid tuzum hukm surib turgan o‘tgan asrning oxirlarida bu haqiqatni chuqur anglab yetgan ziyolilarimiz, millatimiz va tilimiz jonkuyarlari milliy istiqlol sari eng muhim qadamni tashlashga muvaffaq bo‘ldi. Ya’ni, mamlakatimizda o‘zbek tilining nufuzini oshirish, uni davlat tili darajasiga olib chiqish bo‘yicha harakatlar boshlandi. 1989-yilning 21-oktyabrida O‘zbekiston SSR Oliy Soveti tomonidan millat va mamlakat mustaqilligining o‘ziga xos ramzi, tom ma’nodagi istiqlol sari muhim hamda dadil qadam sifatida “Davlat tili haqida”gi Qonun qabul qilindi. O‘zbekiston Konstitutsiyasida o‘zbek tilining davlat tili sifatida qat’iy belgilab qo‘yilgani esa, ozodlik harakati g‘alabasining avj nuqtasi bo‘ldi, deyish mumkin. Shu tariqa millat barhayotligining, davlat suverenitetining garovi bo‘lgan o‘zbek tilini rivojlantirish, uning imkoniyatlari va jozibadorligini xalqaro miqyosda ham targ‘ib etishga qaratilgan keng ko‘lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning ona tilimiz boqiyligi va ravnaqi yo‘lidagi sa’y-harakatlari biz yuqorida tilga olgan buyuk ajdodlarimiz xizmatlari kabi ulkan va tarixiydir. Zotan, taraqqiyotimizning yangi bosqichida Davlatimiz rahbarining ezgu tashabbuslari bilan ona tilimizning rivojiga xizmat qiluvchi katta qadamlar tashlandi.



2019-yilda o‘zbek tiliga bag‘ishlangan tantanali yig‘ilishda muhtaram Prezidentimizning tahliliy ma’ruzalari tilimiz rivojidagi mutlaqo yangi va tarixiy bosqichni boshlab berdi.

O‘sha yili imzolangan “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonga muvofiq, Vazirlar Mahkamasi huzurida Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etildi.

21-oktyabr – O‘zbek tili bayrami kuni deb e’lon qilindi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti va boshqa nufuzli minbarlarda Davlatimiz rahbarining o‘zbek tilida ma’ruza bilan chiqayotganlari tom ma’noda tarixiy va inqilobiy hodisadir.

Xalqimizning bashariyat oilasidagi munosib o‘rnini yana bir karra ko‘rsatib beradigan bunday voqelik milliy g‘ururimizni osmon qadar yuksaltirayotgani ham haqiqatdir. Umuman, o‘tgan qisqa davrda davlat tili rivoji, ravnaqi yo‘lida yigirmaga yaqin normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilib, hayotga tatbiq qilindi. Bular qatorida Davlatimiz rahbarining 2025-yil 20-oktyabrdagi “Davlat tilini yanada rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 308-sonli Qarorini alohida ta’kidlash o‘rinli. Zero, ushbu Qaror bilan mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha sohalarida davlat tili imkoniyatlaridan to‘liq va samarali foydalanish, ta’lim tashkilotlarida o‘zbek tilini o‘qitish tizimini takomillashtirish, xalqaro miqyosdagi o‘rni va nufuzini kengaytirish bo‘yicha ustuvor vazifalar aniq belgilab berildi. O‘zbek tilini rivojlantirish bo‘yicha 2025-2026-yillarda amalga oshiriladigan dolzarb vazifalar yuzasidan Dastur tasdiqlandi. Ona tilimizning nafaqat yurtimizda, balki xalqaro miqyosda ham ta’sir doirasini kengaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, Hukumatning joriy yil 28-yanvardagi qarori bilan chet el fuqarolari uchun o‘zbek tilini bilish darajasini aniqlash va malaka sertifikatini berish tizimi joriy etildi. Quvonarlisi, hozirgi kunga qadar 700 ga yaqin o‘zga millat vakillari o‘zbek tilini o‘rganib, tegishli muvofiqlik sertifikatlariga ega bo‘lishdi.

Ta’lim muassasalarida o‘zbek tilining o‘rni va nufuzini yanada mustahkamlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, davlat maktabgacha ta’lim tizimida o‘zbek tili guruhlaridagi qamrov 91,6 foizga yetkazildi, ta’lim tili o‘zbek tili bo‘lmagan maktablar uchun davlat tili majburiy fan sifatida belgilandi. Ta’lim boshqa tilda olib boriladigan maktablarning bitiruvchilari uchun davlat tilidan yakuniy imtihon joriy etildi. Tegishli milliy sertifikatga ega bo‘lgan o‘zbek tili fani o‘qituvchilarining oylik maoshiga 50 foiz qo‘shimcha ustama berilmoqda.

Yana bir muhim jihat shundaki, keyingi yillarda 200 mingga yaqin geografik obyekt nomlari davlat tiliga muvofiqlashtirildi.

O‘zbekiston fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish talabi rasman belgilandi va bu kabi ishlar tilimizning mavqeyini ko‘tarishga xizmat qilmoqda.

Eng asosiysi, Davlatimiz rahbari ta’biri bilan aytganda, bugungi kunda biz yangi O‘zbekistonni, yangi Renessans poydevorini barpo etishdek ezgu maqsadlarimizga erishishda, hech shubhasiz, ona tilimizning hayotbaxsh qudratiga tayanmoqdamiz.

Mutafakkirlarimiz qayd etganidek, ona tili umummillat mulkidir, demak, til oldidagi mas’uliyat ham umummilliydir.

O‘zbek tilini o‘zbekman deya faxr bilan yashayotgan har bir shaxs qadrlamog‘i, hurmat qilmog‘i lozim. Binobarin, biz ham avvalo tizimimizning o‘zida, davlat tilining nufuzini oshirish, xodimlarni unga cheksiz hurmat ruhida tarbiyalashga alohida e’tibor qaratmoqdamiz.

Prokuratura organlari tomonidan davlat tiliga oid qonunchilik hujjatlari ijrosi yuzasidan nazorat kuchaytirildi. Reglamentimizga muvofiq, prokurorlar qaysi qonun ijrosini tekshirishidan qat’i nazar, tekshirilayotgan idorada davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilikka rioya etilishi ahvolini majburiy ravishda o‘rganmoqda. Hozir prokurorlarimiz har qanday tekshirishni, avvalo, davlat tiliga munosabat ahvolini o‘rganishdan boshlab, keyin asosiy masalaga o‘tmoqda. O‘tgan uch yilda prokuratura organlari tomonidan davlat tili haqidagi qonun hujjatlari talablarini buzish bilan bog‘liq 19 mingdan ziyod holat aniqlandi. Ularning asosiy qismi ish yuritishda o‘zbek tilining imlo qoidalariga rioya qilmaslik, ichki hujjatlarni qabul qilishda davlat tili talablarini buzish, tashqi reklamalar va axborot matnlarida til me’yorlaridan chetga chiqishda ifodalanadi. Bunday tekshirishlar natijasida davlat idoralariga 700 ga yaqin taqdimnoma kiritildi, qonun talabini buzgan 200 dan ortiq shaxs intizomiy hamda ma’muriy javobgarlikka tortildi, joylarda uch mingdan ziyod targ‘ibot tadbirlari o‘tkazildi. Albatta, biz bu borada keng jamoatchilik, ayniqsa, madaniyat, san’at va adabiyot ahli bilan hamkorlikka tayanamiz.

Davlat tiliga bo‘lgan hurmat va yuksak e’tibor har bir jabhada kundan kunga ortmoqda. Prokuratura xodimlari o‘rtasida har yili o‘tkazib kelinayotgan nufuzli tanlov ham fikrimiz dalilidir. Olti yildan buyon o‘tkazib kelinayotgan tanlovda shu paytga qadar yiliga o‘rtacha 500 nafarga yaqin xodimlarimiz qatnashgan bo‘lsa, joriy yilda esa, tanlovning qamrovi keskin oshdi. Ya’ni, 2,5 ming nafardan ziyod hamkasblarimiz tanlovda bevosita ishtirok etishdi. Muhimi, bu yil ham “Millat ona tili bilan tirikdir” mavzusida o‘tkazilgan tanlov qizg‘in kurashlar, do‘stona va samimiy raqobat muhitida kechdi. Quyi bosqichlarda 50 nafardan ortiq xodim g‘olib deb topildi va respublika bosqichiga yo‘llanmani qo‘lga kiritdi. Tanlov yakunlariga ko‘ra, 13 nafar hamkasbimiz g‘olib va sovrindorlar qatoridan joy oldi. Eng muhimi, mazkur tanlov ma’lum ma’noda aksariyat xodimlarimiz ma’naviyati, ona tilimiz, o‘zbek va jahon adabiyoti haqidagi bilimlarining yuqori ekanini ham namoyish etdi. Ular tanlov davomida ona tilimizning cheksiz imkoniyatlarini, uning boshqa tillardan ustun jihatlarini, jozibasi va go‘zalligini chuqur anglashlarini amalda isbotlashdi. O‘zbek tilida bitilgan mumtoz va zamonaviy asarlardagi g‘oyalar, badiiy vositalar ahamiyati hamda mohiyatini soha mutaxassislariga xos tarzda tahlil qilib berishdi. Bundan tashqari, ko‘plab xodimlarimiz o‘zlarining ijod namunalarini ham hakamlar hay’atiga taqdim etishdi.

Bugun dunyodagi siyosiy, ijtimoiy jarayonlar shiddatli tus olmoqda. Hatto, minglab odamlarning hayotiga zomin bo‘layotgan urushlarning asosiy sabablaridan biri sifatida u yoki bu tilning himoyasi ko‘rsatilmoqda. Darhaqiqat, til aloqa vositasi bo‘lish barobarida har bir millat barqarorligi garovi bo‘lgan ulkan ijtimoiy hodisa hamdir. Agar qaysi til kamsitilsa, mag‘lub etilsa, shu tilda so‘zlovchilarning barchasi kamsitilgan va mag‘lub etilgan sanaladi. Demak, tilga tajovuz – millat va davlatning borligiga, ozodligiga tajovuzdir. Agar biz o‘z ona tilimizga ana shu nuqtayi nazardan ogohlik bilan munosabatda bo‘lsak, mustaqilligimiz ham abadiy, milliy taraqqiyotimiz barqaror va bardavom bo‘ladi. O‘zbek tilining beqiyos imkoniyatlarini yuzaga chiqarish, uning jahon miqyosida nufuzi va jozibadorligini oshirish uchun hali oldimizda ko‘plab vazifalar turibdi.

Avvalo, davlat tili butun jamiyatni, tili va millatidan qat’i nazar, barcha fuqarolarni yagona xalq sifatida birlashtirishga xizmat qilishi zarur. Bu borada ortiqcha ehtiros va hissiyotlarga berilmasdan, vazminlik bilan ish tutish lozim. Zero, davlat tili faqatgina soha mutaxassislarining emas, balki ko‘pmillatli butun xalqimizning birgalikdagi sa’y-harakatlari, aql-zakovati, ma’naviy-ma’rifiy salohiyati, vatanparvarlik fazilatlari bilan ravnaq topadi.

IFTIXOR

Meni elga tanitgan



Rayhon YUSUPOVA,
Toshkent viloyati
O‘rta Chirchiq tumani prokurori
katta yordamchisi,
podpolkovnik

She’r bitmoqlik yuqqan bizga alla bilan,
Ona tilim – aslida eng ko‘hna ilm.
Sanduvochlar chah-chah urgan dala bilan
Menga meni tanitgan til – ona tilim.

Qo‘rqdim goho, o‘z tilimni tilib aytdim,
O‘tinchimni Xudoyimga bilib aytdim.
Til-u dilni bir tan-u jon qilib aytdim,
Menga seni tanitgan til – ona tilim.

Nafasimiz yulduzlarga yetganida,
Shunday yaxshi kunlar nasib etganida,
“Hovva” deyman til shevaga ketganida,
Menga elni tanitgan til – ona tilim.

Ona tilim Tangriqutdan hidoyadir,
To‘nyuquqdan bizga ezgu hikoyadir.
Koshg‘ariydan umumturkiy cho‘ng g‘oyadir,
Moziylarni tanitgan til – ona tilim.

Kengligingga torlik qilar qancha baytlar,
Yupanchimsan, suyanchimsan o‘ksuk paytlar.
Qarluq, qipchoq, o‘g‘uzlar jo‘r bo‘lib aytar,
G‘oziylarni tanitgan til – ona tilim!

QADRIYATLARDA MUJASSAM UYG‘UNLIK



Karomiddin GADOYEV,
O‘zbekistonning Malayziyadagi elchisi, geografiya fanlari nomzodi

Boshlanishi 1-sahifada.

Tarixiy manbalardan ma’lumki, Buyuk Ipak yo‘li tarmoqlari dengiz orqali Sharqiy Xitoydagi portlarga, so‘ng quruqlik orqali materikning ichkarisiga, ya’ni asosiy Ipak yo‘li bo‘ylab yo‘nalgan. Uning ayrim tarmoqlari Hindixitoy yarimorolidan Janubiy Xitoy va Shimoliy Hindiston orqali hozirgi Markaziy Osiyo hududidagi qadimiy davlatlar (So‘g‘diyona, Baqtriya, Kushon podsholigi) hududi orqali Yevropa mamlakatlarigacha davom etgan.

Malayziyada Islom dini XV asrdan boshlab keng tarqala boshlagan bo‘lsa, islomshunoslik va sivilizatsiya markazi hisoblangan O‘zbekiston hududida yashab o‘tgan ulamolar va ularning merosi ushbu jarayonda muhim rol o‘ynagan. Shuning uchun ham, malayziyalik olimlar qadimgi Buyuk Ipak yo‘li chorrahasida joylashgan va islom sivilizatsiyasining muhim markazlari bo‘lgan Buxoro va Samarqandning malay madaniyatining shakllanishidagi ta’siriga alohida e’tibor beradi. Ularning fikricha, bir necha asrlar davomida savdo va ilm-fan markazi bo‘lgan ushbu qadim shaharlar butun islom dunyosining intellektual va madaniy landshaftining yaratilishida muhim rol o‘ynagan. Islom dinining oltin asrlari (VIII-XIII asrlar) davomida bu yerda astronomiya, tibbiyot, falsafa, matematika va fiqh fanlarining jadal rivojlanishi butun dunyo olimlari e’tiborini jalb qilgan.

Xuddi shu davrlardan boshlab Buxoro va Samarqandning malay dunyosi bilan aloqalari Buyuk Ipak yo‘li va dengiz savdo yo‘llari orqali turli g‘oyalar, ilmiy adabiyotlar va madaniy an’analarning almashinishi bilan kuchaya borgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston zaminidan o‘tgan ko‘plab karvonlar ushbu zamindagi fan yutuqlari va islom dini asoslarini Janubi-Sharqiy Osiyoga, Malay arxipelagiga olib kelishgan.

Markaziy Osiyoda keng rivojlangan tasavvuf ilmi Malayziya hududida islom madaniyatining shakllanishida muhim rol o‘ynagan hamda mahalliy an’ana va urf-odatlar bilan uyg‘unlashib ketgan. Shuning uchun ham, tasavvufning ta’siri ilk malay sultonliklari davrida yaratilgan badiiy va diniy adabiyotlarda yaqqol seziladi. Malaylarning arab alifbosiga asoslangan javiy yozuvining rivojlanishida ham Buxoro va Samarqandda yaxshi rivojlangan ilm-fan va olimlarning asarlari orqali amalga oshirilgan aloqalar muhim o‘rin tutadi.

Shuning uchun Malayziyada Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband, Imom Moturidiy, Imom Termiziy kabi jahon tamadduni va Islom dini ilmi taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan allomalarimizning buyuk merosiga yuksak ehtirom bilan qarashadi. Shunisi e’tiborliki, ushbu mamlakatda har ikki yilda Imom Buxoriy nomidagi Qur’on va hadis ilmi mutaxassislarining xalqaro musobaqasi o‘tkaziladi. Butunjahon So‘fiylar markazining bosh qarorgohi Malayziya poytaxti Kuala-Lumpur shahrida joylashgan. Mamlakatning turli qismlarida Beruniy, Ibn Sino, Imom Buxoriy nomi bilan atalgan obyektlarni ko‘rib, shunday buyuk ajdodlarning avlodi ekaningizdan faxrlanishingiz, shubhasiz.

Malayziya texnologiya universitetining rahnamosi sanalgan mamlakat qirolichasi Raja Zarit Sofiya joriy yil may oyida O‘zbekistonga tashrif buyurgan chog‘ida, Toshkentdagi Islom sivilizatsiyasi markazida o‘tkazilgan “Islom sivilizatsiyasida ilmiy an’analar: manbalar, dolzarb masalalar va salohiyat” mavzusidagi xalqaro konferensiyada ikki davlatni ilm-fan, meros va sivilizatsion qadriyatlar birlashtirib turishini ta’kidlab, O‘zbekistonni musulmon olamining yirik ilmiy markazlaridan biri sifatida e’tirof etganini alohida ta’kidlash joiz. Malayziya qirolichasining qayd etishicha, Imom Buxoriy, Moturidiy va Beruniy kabi allomalar merosi bugun ham Malayziya ta’lim tizimida chuqur o‘rganilib, O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi hamkorlik umumiy ma’naviy va ilmiy qadriyatlarga tayangan holda, yangi bosqichga ko‘tarilmoqda.



Kuala-Lumpur shahridagi Imom Buxoriy jome masjidi.

Shuningdek, Malayziya Milliy universitetining Islom sivilizatsiyasi markazi mamlakatimiz hududida yashab o‘tgan ulug‘ allomalarning ilmiy merosini o‘rganish borasida Imom Buxoriy, Imom Moturidiy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy markazlari bilan yaqin aloqalar o‘rnatgan. Ushbu hamkorlikning amaliy natijasi o‘laroq, har yili qo‘shma anjumanlar o‘tkazilmoqda va har ikkala mamlakatda yashab o‘tgan ulamolarning islom dunyosi rivojiga qo‘shgan hissasiga oid ilmiy to‘plamlar chop etilmoqda.

Butunjahon so‘fiylar markazi tomonidan har yili O‘zbekistonda Naqshbandiya festivali va Imom Buxoriy anjumanlari o‘tkazib kelinmoqda. Jumladan, Imom Buxoriy xalqaro anjumani 2026-yilning iyun oyida Samarqand shahrida o‘tkazilgan bo‘lsa, 6-Naqshbandiya xalqaro festivali 17-23-sentyabr kunlari Buxoro shahrida tashkil etildi.

MALAYZIYANI O‘RGANGAN BUXOROLIK DENGIZCHI

O‘zbekiston zaminida tug‘ilgan shaxslarning Janubi-Sharqiy Osiyoni tadqiq etish va uning jahon sahnasiga chiqishidagi o‘rni katta. Ularning ushbu mintaqa, jumladan, Malayziya hududlarini o‘rganishdagi bevosita roli XIII-XV asrlarga borib taqaladi. Xuddi ana shu paytda, ya’ni XIII asrning ikkinchi yarmigacha Xitoyda hukmronlik qilgan mo‘g‘ullar sulolasi davrida asli kelib chiqishi buxorolik bo‘lgan ulamo Sayyid al Ajal Shamsuddin Umar bin Sayyid Kamoliddin Buxoriy ushbu mamlakatda taniqli davlat va din arbobi sanalgan. U o‘sha paytlarda Xitoy hududida ham hukmronlik qilgan mo‘g‘ul xoni Hubilayxonning harbiy qo‘mondonlaridan biri bo‘lgan. U o‘zining harbiy san’ati bilan Xitoyning Yunan provinsiyasini zabt etib, 1271–1279-yillarda uning xoqoni bo‘lgan.

Uning avlodlari, hatto Xitoyda mo‘g‘ullar sulolasi hokimiyatni qo‘ldan boy berganidan so‘ng tashkil topgan Ming sulolasi davrida ham taniqli davlat xizmatchilari bo‘lgan. Jumladan, Shamsuddin Umarning o‘g‘li Sayyid Nasriddin bin Sayyid al Ajal Shamsuddin Umar Buxoriy otasidan so‘ng 1292-yilga qadar Yunan provinsiyasida xoqon bo‘lgan. Ayniqsa, Sayyid Nasriddin Buxoriyning chevarasi Ma Xe Minlar sulolasi davridagi mashhur dengizchi, diplomat sifatida Xitoy va Malayziyada juda mashhur. Ma asl ismi Muhammad (yoki Mahmud)ning qisqartmasi bo‘lib, Chjeng ismi unga Xitoy imperatori tomonidan jangda ko‘rsatgan jasurligi uchun berilgan. U 1405-yildan 1433-yilgacha, qariyb 30 yilga yaqin vaqt mobaynida yetti marta Xitoyning yirik dengiz ekspeditsiyalariga “bosh elchi” sifatida rahbarlik qilgan va flot admirali darajasigacha erishgan. Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo, Afrika hamda Yaqin Sharq mamlakatlarini o‘rganish, Xitoyning ushbu mamlakatlar bilan savdo aloqalarini o‘rnatishiga katta hissa qo‘shgan.

Mutaxassislar Chjen Xeni “dengiz ipak yo‘li”ning asoschisi sifatida Xitoy tarixidagi eng buyuk dengizchi-sayyoh deb atashadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, uning dengiz flotida 250 dan ortiq kema va 30 mingga yaqin dengizchi bo‘lgan. U mashhur portugaliyalik sayyoh, dunyo bo‘ylab ilk aylana sayohatni amalga oshirgan Fernando Magellandan 116 yil, Amerikani kashf etgan ispaniyalik Xristofor Kolumbdan 90 yil oldin Afrika va Amerikani ochishga muvaffaq bo‘lgan. Yaqin Sharqdagi Hormuz va Adan, Afrika janubidagi Mozambik bo‘g‘ozlarida ulkan flot bilan suzib, arab dengizchilari va venetsiyalik savdogarlarni hayron qoldirgan. Shuning uchun ham, mutaxassislar sharq ertaklaridagi Sindbod-dengizchi obrazi aynan Chjen Xening tarjimayi holidan olingan, degan fikrni ilgari suradi.

Chjen Xe o‘zining birinchi dengiz ekspeditsiyasini Janubi-Sharqiy Osiyoga uyushtirib, Indoneziya orollari va Malakka yarimorolidagi o‘sha paytlardayoq birmuncha rivojlangan davlat markazi bo‘lgan hozirgi Malakka shtatini o‘rgangan. Keyingi har bir dengiz safari davomida, albatta, Malakka bo‘g‘ozini kesib o‘tib, hozirgi Malayziyaning Malakka, Kelantan va Paxang shtatlari hududini batafsil tadqiq qilgan. Ushbu hududlar bilan Xitoy o‘rtasidagi aloqalarning rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shgan.

Malakka yarimorolining butun dunyoga tanilishida Chjen Xening o‘rni katta bo‘lgan. XV asrda Malakka yarimorolidagi aholi 80 dan ortiq turli tillarda gaplashgan. Chjen Xening dengiz ekspeditsiyalari turli mamlakatlar kemalari kelib to‘xtaydigan Malakkani mintaqadagi yirik savdo markazlaridan biriga aylanishiga olib kelgan. Shuningdek, u mohir diplomat sifatida Malakka yarim orolidagi sultonliklarning qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro munosabatlarini rivojlantirishga, mojarolarni bartaraf etishga katta hissa qo‘shgan.

Chjen Xe Malakka yarimorolidagi mahalliy aholiga dehqonchilik va chorvachilik hamda tropik suvlarda serob bo‘lgan timsohlarning terisidan chet mamlakatlarda xaridorgir bo‘lgan poyabzal tayyorlash malakalarini o‘rgatgan. Shuningdek, Chjen Xe floti bilan birga Malayziya hududiga Xitoydan ko‘prik quruvchilar, port xo‘jaligi mutaxassislari, tanga zarb qiluvchi ustalar va boshqa qator soha hunarmandlari va savdogarlar kirib kelgan.

Mutaxassislar Janubi-Sharqiy Osiyo va Hind okeani qirg‘oqlarini batafsil o‘rgangan Chjen Xening dengiz sayohatlarini miqyosiga ko‘ra yevropalik sayyohlar tomonidan amalga oshirilgan Buyuk geografik kashfiyotlarga taqqoslashadi. Ammo yevropaliklarning sayohatlari turli mustamlaka va imperiyalarning paydo bo‘lishiga olib kelgan bo‘lsa, Chjen



Chjen Xega Malakkada o‘rnatilgan haykal.

Xening sayohatlari turli mamlakatlar o‘rtasidagi o‘zaro savdo aloqalarining kuchayishiga sabab bo‘lgan. Shuning uchun ham Amerikaning Life jurnali 1997-yilda e’lon qilingan so‘nggi ming yillik davomida dunyo tarixiga salmoqli ta’sir ko‘rsatgan 100 ta shaxs ro‘yxatida Chjen Xeni 14-o‘ringa qo‘ygan.

Ota-bobolari asli buxorolik bo‘lgan dengizchi-sayyoh Malakkada shunchalik katta obro‘ga ega bo‘lganki, unga sultonlik filida malaylarning milliy kiyimida saroyga kirib kelishiga ruxsat berilgan. Mahmud (Muhammad) – Chjen Xening Malakka yarimorolini o‘rganishdagi xizmatlarining e’tirofi sifatida 2016-yilda Malakka shtatining shu nom bilan ataluvchi markazida uning haykali o‘rnatilgan.

BOBURIYLAR MADANIYATINING IN’IKOSI

1498-yilda yevropalik sayyoh Vasko da Gama tomonidan Afrika janubi orqali Hindistonga dengiz yo‘lining ochilishi natijasida XVI asrdan boshlab portugallar Malakka bo‘g‘oziga tutash yerlarda hukmronlik o‘rnatgan. Xuddi shu davrda Hindistonda taniqli davlat arbobi, sarkarda va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari tomonidan kuchli markazlashgan davlat barpo etilgan. Boburiylar saltanati davrida Hindiston Malakka bo‘g‘ozi atrofidagi hududlar bilan dengiz orqali yaqin savdo-sotiq aloqalarini amalga oshirgan.

Malakka va Hindiston o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar ushbu ikkala hududda Buyuk Britaniyaning mustamlaka hukmronligi o‘rnatilgan davrda, ayniqsa, XIX-XX asrlarda kuchaygan. Ushbu asrlar davomida hozirgi malayziyalik tamil hindlarining avlodlari mamlakatdagi kauchuk va palma plantatsiyalarida ishlash uchun ko‘chirib kelingan. Shu tariqa, Boburiylar davrida O‘rta Osiyodan, asosan, hozirgi O‘zbekiston hududidan Hindiston zaminiga ko‘chgan madaniyat, an’ana va urf-odatlarning aksariyat elementlari savdo munosabatlari sababli, asta-sekinlik bilan Malakka yarimorolidagi hududlarda o‘rnasha boshlagan.

Migratsiya oqibatida Malayziya hududiga kirib kelgan va tub aholining urf-odatlari bilan uyg‘unlashib ketgan madaniyat O‘zbekiston va Malayziya jamiyatlari o‘rtasida qator o‘xshashliklarning asosini tashkil etadi. Hozirgi paytda Malayziyada tamil hindlarining uchinchi-to‘rtinchi avlodlari yashayotgan bo‘lsa-da, ular ota-bobolaridan qolgan va Hindiston diyoridan ko‘chib o‘tgan boburiylarga xos qator an’analarni hamon saqlab kelmoqda. Jamiyatni yanada jipslashtirishga qaratilgan ushbu qadriyatlarning aksariyati mamlakatning tub aholisi bo‘lgan malaylarning ham turmush tarzida o‘z aksini topgan.

Ayniqsa, ushbu qadriyatlar mamlakat aholisining turmush tarzida oilaga va farzand tarbiyasiga bo‘lgan ulkan e’tibor, kattalarga hurmat, to‘y-ma’rakalarni tashkil qilish uslubi hamda me’morchilik an’analarida yaqqol ko‘rinadi. Jumladan, Malayziyadagi aksariyat binolarning gumbazlari Agradagi boburiylar barpo etgan Toj Mahalga monand holda barpo etilgan. Shuningdek, bu yerda Samarqand va Buxorodagi tarixiy obidalarga o‘xshash moviy gumbazlarga ega bo‘lgan qator binolarni ham uchratish mumkin.

Bundan tashqari, malaylar turli millat va elatlar vakillari o‘rtasidagi o‘zaro munosabat va bag‘rikenglik masalasida xuddi o‘zbeklarga o‘xshash. Shuning uchun ham, turli din va millat vakillari yashaydigan ushbu mamlakatda ichki barqarorlik juda mustahkam bo‘lib, hamisha tinchlik va osoyishtalik hukmron. Bu esa Malayziyani dunyoning yetakchi turizm mamlakatlaridan biriga aylantirgan.

YANGI BOSQICHDAGI HAMKORLIK

So‘nggi yillarda O‘zbekiston-Malayziya munosabatlari sifat jihatidan yangi bosqichga chiqqanini alohida ta’kidlash lozim. Bu nimalarda ko‘rinadi?

Avvalambor, ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy muloqot faollashdi. Jumladan, 16 yillik tanaffusdan so‘ng, 2024-yilning may oyida Malayziya Bosh vaziri Anvar Ibrohim janobi oliylari O‘zbekistonga tashrif buyurdi. 2025-yilning fevral oyida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Malayziyaga tashrif buyurib, O‘zbekiston-Malayziya munosabatlarida yangi davrni boshlab berdi. O‘zbekiston rahbarining Malayziyaga so‘nggi 20 yilda ilk bor oliy darajali tashrifni amalga oshirganini haqiqiy tarixiy voqea deb atash mumkin.

Ikkinchidan, parlamentlararo aloqalar mutlaqo yangi darajaga ko‘tarildi. Har ikkala mamlakat parlamentlarida o‘zaro hamkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo‘shayotgan do‘stlik guruhlari tuzilib, ularning yig‘ilishlari muntazam ravishda o‘tkazib kelinmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi spikeri boshchiligidagi delegatsiya Malayziyaga tashrif buyurib, o‘zaro hamkorlikning istiqbollarini muhokama qildi. Shuningdek, Malayziya parlamenti Vakillari palatasi spikeri va Senat raisi o‘rinbosarining O‘zbekistonga tashriflari davomida har ikkala mamlakat o‘rtasidagi aloqalarni yanada rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchinchidan, har ikkala mamlakat tadbirkorlari va ziyolilari o‘rtasidagi bordi-keldi hamda almashinuvlar sezilarli darajada kuchaydi. Jumladan, malayziyalik investorlar ishtirokida amalga oshirilayotgan loyihalar, o‘zaro mahsulot ayirboshlash hajmi, Malayziyadan tashrif buyurayotgan sayyohlar soni yildan yilga oshib bormoqda. O‘tgan yili Malayziyada ikki davlat oliy ta’lim muassasalari vakillari ishtirokida birinchi oliy ta’lim forumi va O‘zbekiston madaniyati kunlari muvaffaqiyatli o‘tkazildi. Joriy yil noyabr oyida Toshkent shahrida o‘tkaziladigan Xalqaro turizm ko‘rgazmasi doirasida Malayziya madaniyati kunlarini tashkil etish ko‘zda tutilgan. Shuningdek, hozirgi vaqtda 1000 dan ortiq o‘zbekistonlik talaba Malayziyaning yetakchi oliy o‘quv yurtlarida biznes boshqaruvi, energetika, axborot texnologiyalari, islom moliyasi, tibbiyot, kiberxavfsizlik kabi qator zamonaviy yo‘nalishlar bo‘yicha tahsil olmoqda.

Bularning hammasi O‘zbekiston va Malayziya o‘rtasidagi tarixi o‘rta asrlarga borib taqaladigan, vaqt sinovidan o‘tgan o‘zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos mavjudligidan dalolat. Eng asosiysi, keyingi yillarda Malayziyada dunyo rivojiga ulkan hissa qo‘shgan allomalar yurti bo‘lmish O‘zbekistonni yanada teranroq taniy boshlashdi. Malayziyaliklarning, xoh u oddiy sayyoh bo‘lsin, xoh turli sohadagi tadbirkor yoki ta’lim sohasi vakili bo‘lsin, O‘zbekistonga intilishi va mehri bo‘lakcha bo‘lib, ularning mamlakatimiz iqtisodiy salohiyati, boy tarixi va madaniyatiga bo‘lgan qiziqishi yanada ortib boryapti. Bu esa har ikkala mamlakat o‘rtasidagi aloqalarni kelajakda yanada rivojlantirish uchun muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.



TIL DILNI ANGLATSIN

Boshlanishi 1-sahifada.

Yo‘g‘-e, unchalik emas, deysizmi? Unda, mana bu gaplarni tushuntirib bering-chi:

“...davlat tilini ravon bilishni o‘rnatish tartibi navbatdagi vakolat muddatiga nomzodi qayta ko‘rsatilgan amaldagi rahbarga nisbatan qo‘llanilmaydi”;

“...o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish refleksiv texnologiyalari pedagoglarning fasilitatsion harakatlari (motivatsion, tyutorlik, mentorlik)ni pedagogik amaliyotda o‘zaro transformatsiyalashuvi asosida takomillashtirilgan”...

Hoy, to‘xta, nima deyapsan o‘zi, deydigan odam yo‘q. Fikrni anglatmaydigan til – til bo‘ladimi? Tilimiz dilimizni tarjima qila olmay qolsa, bu nimaning alomati? Quyida bugungi kunda ommalashib ketgan, odamlar to‘g‘ri deb biladigan ayrim ifoda shakllarini sharhlab ko‘ramiz.

To‘lqinlanmoq. Ko‘l, dengiz to‘lqinlanadi, odam – hayajonlanadi, to‘lqinlanmaydi. Заволноватсяning o‘zagi волна bo‘lgani uchun to‘lqin+lanmoq tarzida sun’iy so‘z yasalgan (“радиоволна”ni “radioto‘lqin” deyish to‘g‘ri, chunki bunda muqoyasa bor).

“Qonun kuchga kirdi” yoki *“ushbu qonun e’lon qilingan sanadan boshlab kuchga kiradi”* degan gaplarga ko‘zimiz ko‘p tushadi.

Qonun... qanday qilib kuchga kiradi? Balki qonunga kuch kirar? O‘zbek tilida “kuchga kirdi” deb bemor kishi oyoqqa turganida aytiladi. Ruschaga hijjama-hijja to‘g‘rilayman deb tilimizning belini mayishtirmay, “qonun ishga tushdi” deyaversak-chi? Birov bizni urishadimi?

“Qaysi vazirga, rahbarga savol bermasangiz, oldindagi besh yilda mana shunday ishlarni qilamiz, deb aytadi”. Bu gapning “illati” – uni ruscha gaplashadigan o‘zbek yozgan. O‘zbek “qachon qaramasam, qachon kelmasam, qachon so‘ramasam” demaydi, “qachon so‘rasam, qachon harakat qilsam” deydi va shunday yozadi, ya’ni inkorni inkor shaklida ifodalab o‘tirmaydi.

“Har bir yumshoq jelatin kapsula quyidagilarni saqlaydi” **(dori tarkibi)**. Bu o‘rinda содержит – saqlamoq emas, balki tarkibida shular bor (содержание) degani. *“Har bir yumshoq jelatin kapsula tarkibida quyidagi moddalar bor”,* deyilsa, kifoya.

“Kitob K.M.Baypakov va A.N.Podushkinlar mualliflig‘i ostida nashr etilgan”. Bu ruscha ifoda shakli (книга под редакцией) orqali kirib kelgan, ammo hamoqat shundaki, ruslarning o‘zi ham “под авторством” deb yozmaydi.

“Bu mamlakatda chetdan kelganlar har oyda 500 dollargacha pul ishlashi mumkin”. Pul ishlash degan so‘zni til tuyg‘usi o‘lmagan o‘zbek pul ishlab chiqarish deb tushunadi, uning “pul topish” ekanini hazm qila olmaydi. Bu ifoda “заработать” so‘zining o‘zagida “работа” – “ish” yotishidan kelib chiqqan. Bunaqa yozish – shunday fikrlash natijasi, albatta. Bu mualliflarning til tuyg‘usi, lisoniy begonasirash hissiyoti o‘lib bo‘lgan.

Xuddi shu turdagi xato tarjima ruscha “свой”ni hijjalib o‘girish orqali kirib keladi: “освоить степей” – “cho‘l yerlarni o‘zlashtirish” deb taqdim etiladi. Tili aynimagan odam “cho‘lni o‘zlashtirish”ni cho‘lni egallab olish, deb tushunadi. Cho‘l... o‘zlashtirilmaydi, obod qilinadi. “Bilimlarni o‘zlashtirish” ifodasi zamirida ham shu “свой” turadi (освоить знания).

Hijjalab o‘girishga berilib, tilimizda ming yildan beri qo‘llangan muallim degan qutlug‘ kalimani chetga uloqtirib, rus tilidan учитель so‘zini o‘qituvchi deb harfxo‘rlarcha oldik-qo‘ydik. Holbuki, ko‘p qishloqlarda hali ham maktab va institutda saboq beruvchi kishilarni “ma’lim” (muallim) deb atashadi, shunday chaqirishadi. Aslan, o‘qituvchi grammatikada ot emas, sifatdoshdir, eshituvchi, chopuvchi kabi bir kalima.

“Xon Saroy kompaniyasi 2025-yil natijalari bilan bo‘lishdi”, deyiladi bir xabarda. Nimani... nima bilan bo‘lishdi, desangiz, javob yo‘q. Pulni bo‘lishdi, desa o‘zbekcha bo‘ladi. Ammo “xushxabarni bo‘lishdi” yo “yangilikni bo‘lishdi” – “поделиться”ning harfma-harf o‘girmasi.

Shunga yaqin yana bir qusur “bilan” orqali yuz beradi. Masalan, “davlatlar o‘zaro mutaxassislar bilan almashadi”. Mutaxassislar bilan... nimani almashadi, siz tushundingizmi? Ma’lum bo‘lishicha, mutaxassislar o‘zaro almashtirilar, lo‘nda aytganda, mutaxassislarni almashishar ekan.

“Voqea joyiga yetib kelgan politsiya o‘ramlarda geroin borligini o‘rnatgan”. Qayerga o‘rnatgan, u simyog‘ochmidi, deb savol berging keladi.

Xalq – tili bilan xalq. Tili ketsa, yo‘qoladi. Qirilib bitmaydi, ammo boshqa xalqlar tarkibiga qo‘shilib, bu dunyo sahnidan millat sifatida yitadi. Buning ilk nishonasi o‘lik tilda gaplashish, yozishdir.

Masalan, ruslar uchun “в текущем году” deyish oddiy so‘zlashuvga xos ifoda. Ammo o‘zbek shuni aniq tarjima qilib, “joriy yilda” deb aytsa, til murda tusiga kiradi. “Bu yilda” yoki “shu yilda” de, vassalom!

“Mahallani obodonlashtirish maqsadida ko‘chalarga asfalt yotqizildi”, deydi radio. Qaysi o‘zbek shunaqa gapiradi? Shu axborotni tayyorlagan muxbirning o‘zi ham, gaplashsangiz, “maqsadida” deb buramagajak gap tuzmaydi, “obodonlashtirish” emas, obod qilish deydi, vassalom. Asfalt jonivor odam emaski, yotqizilsa. Asfalt bosiladi!

Tilni boyitadigan, gullatib-yashnatadigan narsa – tarjima. Uni xarob qiladigan, o‘lik tilga aylantiradigan narsa ham o‘sha. Shuning uchun biron matnni, har bir jumlani o‘girib bo‘lgach, shu gap o‘zbekchami, o‘zbek shunaqa deydimi, degan nazar bilan bir qur ko‘zdan o‘tkazilsa, ko‘p illat bartaraf bo‘ladi. Afsuski, ko‘plar “aniq tarjima” tarafdori. Chunonchi, biz murch, qalampir deydigan ikki xil ziravorni ruslar bitta qilib “перец” deydi. Farqlash uchun “черный перец” (murch), “красный перец” (qalampir) deb aniqlovchi qo‘shishadi. Shovvoz mutarjimlar esa murchni “qora murch”, “qizil qalampir”, sedanani esa “qora sedana” deb odamni xit qiladi. Axir... sedana qora bo‘lgani uchun sedana (siyoh dona) deb atalgan!

Til buzish ko‘p, buning ustiga, ular shu qadar xilma-xilki, biron tizimga solish ham mahol. Eng yomoni, ular tobora ko‘payib borayotibdi. Hamma sohada, tilning har bir yarusida til buzishga duch kelamiz. Hatto til haqida kuyinib yozilgan maqolalarning o‘zida ham til buzilishi hollari uchraydi. Goho katta-katta yozuvchilar ham til buzayotganidan xabari yo‘q, asarini yozib ketaberadi. Biz ham shunga o‘rganib qolgandaymiz.

“Bundan oldin Elyig‘mish O‘g‘lonning tazyiqi ostida shu qarorga kelib qo‘ygan Yusuf So‘fi oraga nizo urug‘ini sochayotganlarning gaplariga ham kirdi-yu, Amir Temur bilan quda bo‘lmoqchi emasligini endi butun el-yurt oldida oshkor qildi. Holbuki, kuzning baxmal mavsumida to‘y bo‘ladi, Xorazmdan kelin tushiriladi, degan kelishuvga binoan Samarqandda bo‘lajak to‘yga tayyorgarlik boshlab yuborilgan edi” **(Amir Temur siymosi, 144-b.).**

Shu ikki jumlada ikki xato bor: avvalo, *“tazyiqi ostida”* degani o‘zbekcha emas, u ruscha “под давлением”ni so‘zma-so‘z tarjima qilish oqibati (“под редакцией – tahriri ostida”, “под руководством – rahbarligi ostida” kabi xatolar adabiy tilimizni chirmovuqday o‘rab oldi), “tazyiqi bilan” deyilsa, olam guliston-ku! Keyingi jumladagi *“kuzning baxmal mavsumi” – “бархатный сезон”*ning hijjaviy o‘girmasi. Bizda “бархатний голос”, “бархатная травка”, “бархатние глаза” idiomalari yo‘q, “mayin ovoz”, “barra maysa”, “muloyim ko‘z” deymiz. Amir Temur zamoniga-ku, “baxmal mavsum”ni kavsharlab ham yopishtirib bo‘lmaydi.

Ruschadan beso‘naqay o‘girishdan qutulmay turib, turkcha ohanjamalar chiqib kelayotganiga nima deysiz? Aftidan, ayrimlar o‘z ona tilining xossalarini unutish evaziga turk tilini o‘rganayotgan ko‘rinadi. Yoyinlamoq, oydinlar kabi g‘alati-g‘alati so‘zlar paydo bo‘lyapti, ko‘payib boryapti.

Albatta, hamma aybni tarjimaga to‘nkash ham to‘g‘ri emas. O‘z tilida yozadigan mualliflar orasida ham tilni taxtaga tortadiganlar bor. Bunga ham ko‘p misol aytishimiz mumkin. Ammo jonli, tippa-tirik ona tilimizni o‘ldirib, qora yer tagiga tiqayotgan ikkitagina so‘z bilan cheklansak.

Buning biri “...moqda” qo‘shimchasi. Hech kim “moqda” deb gapirmaydi, biron shevada ham bunaqa qo‘shimcha yo‘q. Faqat o‘lik adabiy tilda bor. Kimdir “bo‘lmoqda, bajarmoqda” deyayotgan bo‘lsa, bilingki, u o‘zbek emas.

Ikkinchisi esa “va” degan bog‘lovchi so‘z. Biron chol yo kampirning – tili buzilmagan o‘zbekning nutqida “va”ni uchratganmisiz? Yo‘q, albatta. Shuning uchun jonli so‘zlashuv tugul, gazeta xabarida ham “va” deb yozsangiz, tilingizning ravish-raftori quruq, o‘ta rasmiy, o‘lik bo‘lib qoladi.

Holbuki, bugun har bir so‘zimiz nafaqat milliy, balki xalqaro ahamiyatga ham molik. Buning dalili uchun bir misol aytay. Davlatlararo shartnomalar o‘zbek tiliga o‘girilayotganda “экстрадиция” degan so‘z uchraydi. U jinoyat qilib, boshqa davlatga qochib ketgan, yashirinib yurgan odamni o‘sha davlat organlari ushlab, jinoyat qilgan yeriga qaytarishi degani. Xalqaro atama bo‘lgani uchun “ekstraditsiya” aslicha qoldiriladi, ammo ruscha sinonimi – “выдача”ni “ushlab berish” deb tarjima qilishadi. Bu g‘aliz va kulgili ifoda. Uni “tutib topshirish” deb o‘girgan ma’qul. Biroq almashtirish ilojsiz – avvalgi matnlarda shunday o‘tgan, ular ratifikatsiya qilingan.

Demak, endi xato qilishga haqqimiz yo‘q. Davlat tili – davlat ishi. U bilan hazillashib bo‘lmaydi. Istalgan so‘zni, estetik ma’nosi chiqsa bo‘ldi, deb o‘giradigan badiiy tarjima davridan o‘tibmiz. Endi har bir so‘zning yuki juda og‘ir, shoir Shavkat Rahmonning “Har bir so‘z ming bitta jonimga arzir”, degani tagida ma’no ko‘p. Mas’uliyatsiz so‘z aytadigan, yozadigan odamning amalida ham mas’uliyat bo‘lmaydi.

So‘z millat taqdirini hal qiladi. Davrning avzoyi shundayki, dunyodagi katta millatlar so‘z aytyapti, boshqalar uni eshityapti. “Tinglovchi” millatlar yo‘q bo‘lib ketishga mahkum. Negaki, so‘zi yo‘qning o‘zi yo‘q. Xo‘sh, biz o‘zbeklar bu dunyo ayvonida so‘z aytuvchi xalq bo‘lamizmi, yo eshituvchi?

Kimdir ruscha so‘z qo‘shib gapirsa, sazoyi qilgudek bo‘lamiz. Aslida, u oson bartaraf bo‘ladigan illat. Tilimiz tomirida no‘noq mutarjimlar quygan boshqa guruh qonlar ham aylanyapti hozir. Sog‘aytiraylik, dardiga davo topaylik.

Ot biyadan, alp enadan, deydilar. Bizning ona tilimiz o‘zi alp. Boshidan ne kunlar, ne sinoatlar o‘tmagan. Yana qad rostlashi aniq. Ana shu kunlar tezroq kelsa ekan, degan niyatda yozdik-da bu gaplarni.

To‘qqiz buloqdan suv ichgan, o‘ttiz asr bilan quvishgan, ne shahr-u ne yobondan, qadim Oltoy tomondan enib kelgan tilimsan. Bir tutab, bir lovullab yonib kelgan tilimsan. Barchinoyning qarog‘i ham, Alpomishning yarog‘i ham, elimning manglayiga bitgan, qora tundagi chirog‘i ham sen. Goh toshib, goh o‘zanida qurib, tor-u kengish yo‘llardan yurib kelayotibsan, o‘zbekning o‘ziday bag‘ring keng, tor ko‘ngullik ne beklarni surib kelayotibsan. Rabg‘uziy, Temur kabi, Bobur, Mirtemir kabi ming alpni bag‘ringda ulg‘aytirgan beshiksan, kulli o‘zbek yurtiga bu jahon ayvonini ochar oltin eshiksan. Sening bir chirpinishingga mushtoqmiz – shiddating cho‘yan zanjirlarni uzadi, bu tilda nash’-u namo topgan elim esa, inshaolloh, dunyo ko‘pkarisida hammadan o‘zadi.

Zuhriddin ISOMIDDINOV,
filologiya fanlari nomzodi

MUNOZARA

SO‘Z ASLIYATI VA MAS’ULIYATI

Sarlavhada ikkita masala turibdi. Birinchisi – so‘z asliyatini bilish, ikkinchisi – so‘zni mas’uliyat bilan qo‘llash. Ma’lumki, davr o‘tishi bilan xalq ayrim so‘zlarning asliyatidan uzoqlashib boradi. Bu o‘sha so‘zlarning muomalada kam ishlatilishi bilan bog‘liq. Shunga qarab, so‘z ham asliyatidan uzoqlashib, o‘zgarishlarga uchraydi.

JAVPAZAK

Bu so‘zni o‘qigan kishi daf’atan o‘zbek adabiy tilida bunday so‘z yo‘q, deya e’tiroz bildirishi mumkin. Ha, to‘g‘ri, o‘zbek adabiy tilida bu so‘z yo‘q, lekin xalq shevalarida bor. Men ham dastlab shunday deb o‘yladim. Gap shundaki, “Jadid” gazetasining 2026-yil 5-iyun sonida chop etilgan Ibrohim G‘afurovning “Bolalik kunlari” essesida shunday jumla uchradi: “Bog‘dan erta pishgan javzapak o‘rik”... Darhol ushbu so‘z noto‘g‘ri qo‘llanganini payqadim. Chunki men o‘sib-ulg‘aygan yurt shevasida bu so‘z “javpazak” shaklida ishlatiladi. Lekin Ibrohim G‘afurov Toshkent shahrida o‘sib-ulg‘aygan. Mahoratli so‘z ustasi so‘z qo‘llashda bunday xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin emas, albatta. Balki, maqolani ko‘chirish, tahrir jarayonida so‘z shakli o‘zgarishga uchragandir. Ehtimol, Toshkent shevasida so‘z o‘zgarib ketgandir.

Toshkent shevasi vakili bo‘lgan ikki ziyoli tanishimdan shu so‘zni bilish-bilmasliklarini so‘radim. Ularning biri 60 yoshdan oshgan, ikkinchisi 80 yoshda. Ular bu so‘z Toshkent shevasida, va umuman, o‘zbek tilida borligini bilmasliklarini aytdilar. Ikkovlari ham filolog, birlari tilshunos, birlari adabiyotshunos. Balki, sheva bisotining hozirgi holatida bu so‘z taomildan chiqqandir. Ibrohim G‘afurov esa salkam asrni qaritgan donishmand olim edi. Shunday ulug‘ yoshli insonlar bilmasa, haqiqatan ham, so‘z muomaladan chetlashgan ko‘rinadi.

Odatim bo‘yicha, birrov lug‘atlarga ham murojaat qilib ko‘raman. Ne ko‘z bilan ko‘rayki, bu so‘z lug‘atlarda bor ekan. “O‘zbek tilining imlo lug‘ati” **(“Fan” nashriyoti, 1976-yil, 162-bet)**da so‘z quyidagi shaklda turibdi: “Javpazak (ertapishar)”. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni varaqlayman. Unda ham bu so‘z bor va unga quyidagicha izoh berilgan: “JAVPAZAK shv. Ertapishar, chillaki. Kimsasiz bir bog‘ga kirib, yarim do‘ppi javpazak pesa (g‘o‘ra o‘rik) terib chiqdim. A.Qahhor, O‘tmishdan ertaklar. Afandining bir tup javpazak o‘rigi bor edi. “Latifalar”. **(“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, 5 jildli, 2-jild, 63-bet).**

O‘zbek adabiy tili lug‘atlaridan o‘rin olganmi, demak, bu so‘z o‘zbek adabiy tilida bor, deb hisoblash mumkin. Bu so‘z o‘zbek xalqining ko‘p shevalarida keng tarqalgan. Masalan, tilshunos olim To‘ra Nafasovning 2011-yilda nashr etilgan Qashqadaryo viloyati shevalari haqidagi kitobida “javpazak” so‘zi may-iyun oylari (javzo)da pishadigan ertapishar olma ma’nosida izohlangan. Demak, “javpazak” so‘zi faqat ertapishar o‘rik emas, umuman, ertapishar meva ma’nosiga ham ega ekan.

“JAVPAZAK” asli tojikcha so‘z bo‘lib, uning xalq tilida borligi, ikki xalq azaldan birga yashaganidan dalolat beradi. So‘z ikki o‘zakdan tuzilgan: “jav” va “pazak”. “Jav” oy nomi “javzo”ning qisqartma shakli yoki javzo oyida pishadigan “jav” – arpa so‘zidan olingan bo‘lishi mumkin. “Pazak” esa tojikcha “puxtan” fe’lidan yasalgan va “pishar”, “pishuvchi” ma’nolarini ifodalovchi o‘zakdir. Shu ikki o‘zak birlashib, “javpazak” – “ertapishar” so‘zi hosil bo‘lgan.

“SHARIF” – FAMILIYA EMAS

Tilimizdagi har bir so‘z milliy boyligimizdir. Albatta, uni o‘z o‘rnida qo‘llasakkina, u nutqimizga zeb-u ziynat, mazmun va malohat bag‘ishlaydi. Aksincha, so‘zni o‘rinsiz qo‘llasak va bu noto‘g‘ri ishni keng miqyosga yoyib, urfga aylantirsak, boshimizga bitgan balo bo‘ladi, tuzatilmas darajaga yetadi. Ayniqsa, qalam ahli shu qusurga yo‘l qo‘ysa, uyat bo‘ladi. “Sharif” ana shunday so‘zlardan biridir. Tilimizga arab tilidan kirib kelgan “sharif” so‘zi “sharofatli” ma’nosini anglatib, u ism hamdir.

Afsuski, u keyingi 30 yillar ichida kimdir orqali rasmiy hujjatchilik leksikasiga kirib oldi. U goh familiya, goh ota ismi o‘rnida qo‘llanadigan bo‘lib qoldi. Bu qo‘llanishning noto‘g‘riligi haqida ko‘p yozildi. Men ham maqolalarim va kitoblarimda qayta-qayta yozdim. Ammo mashhur bo‘lib ketgan g‘alat, ya’ni g‘alati mashhurni yo‘qotish juda qiyin bo‘lar ekan. Hatto til va adabiyot yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlarida ham bemalol rasmiy hujjatlarda ishlatishadi bu so‘zni. Fan doktorlari, professorlar, rahbarlar ham e’tibor berishmaydi bu xatoga.

Kamina bundan bir necha yil avval ushbu xatoning payiga tushib, ildizini topib, tag-tomiri bilan quritmoqchi bo‘ldim. Kalavaning uchi borib oliy ta’lim vazirligiga taqaldi. Oliy ta’lim vazirining davlat tili bo‘yicha maslahatchisiga telefon qilib, masalaning mohiyatini tushuntirdim. U o‘z tasarrufidagi hujjatchilikda tuzatishga va’da berdi. Biroq hanuzgacha bu mash’um xato tuzatilmadi. Ba’zan hujjatlarni olib kelishadi, ism-familiyangiz ro‘parasida F.I.Sh. – familiya, ism, sharif yozilgan. Hujjat to‘ldirilgan, imzo chekmay iloj yo‘q.

Alqissa, “Jadid” gazetasining 2026-yil 31-iyul kungi sonida chop etilgan Ro‘zimboy Hasanning “Osmondan tushgan” ismlar” maqolasida shunday jumlalarni o‘qiymiz: “Beregin yoki Qosim Sorokin kabi ziyolilar o‘zlariga o‘zga zabonli sharif tanlashlari ortida ham majburiylik yotibdi. Afsuski, “береги” – “saqla” so‘zini sharif qilib olgan inson hayoti sovet zindonlarida yakun topgan”. Ro‘zimboy Hasan mustaqillik davridagi eng faol jurnalistlarimizdan biri. Mubolag‘asiz, mingdan ortiq maqola chiqargan bo‘lsa kerak. Shunday tajribali jurnalist uslubiy xatolarga yo‘l qo‘ysa, dodingizni kimga aytasiz?! “Hammani qo‘y, echkini so‘y” deyilganidek, endi kelib-kelib mashhur jurnalistga qanday yozishni o‘rgatasizmi?! Ikkala jumlada ham “sharif” so‘zi “familiya” so‘zi o‘rnida o‘rinsiz qo‘llangan. Birinchi jumladagi “o‘zga zabonli sharif” iborasining o‘zida ham uslubiy xato bor. Bu iboradan “boshqa tilli familiya” degan o‘xshovsiz ma’no chiqadi. Uslub sodda, tushunarli bo‘lishi uchun oddiygina “til” so‘zi bor-ku. Kitobiy “zabon” so‘zi nima qiladi u yerda? Keyin, familiya o‘zga tilli bo‘lmaydi – o‘zga tildan olingan, o‘zga tildan kirib kelgan, o‘zga tildagi bo‘ladi-da.

“Sharif” so‘zi masalasida, necha marta qaytarayotganimni bilmayman, yana aytaman, u familiya ma’nosini bermaydi. U – iltifot tushunchasi. So‘zlovchi suhbatdoshiga murojaat qilayotganida “ismi sharifingiz”, deya unga lutf qiladi, iltifot ko‘rsatadi. Bu – norasmiy muomala leksikasi. Diplomatik nutqda rasman ham qo‘llanishi mumkin. Iboradagi “ism” so‘zidan keyingi “-i” – forsiy izofa. “Ismi sharif” – sharofatli, sharafli ism ma’nosini bildiradi. Ushbu iborani huquqiy (yuridik) bo‘lmagan matnlarda to‘la holida ishlatish mumkin. Lekin “sharif” so‘zining o‘zini alohida familiya yoki ota ismi ma’nosida ishlatish – qo‘pol uslubiy xato. Ayrim odamlar fahmiga bormay, ibora tarkibidagi “-i” izofasini “u” bilan yanglishtirib, “ism-u sharif” degan g‘alati mashhurni keltirib chiqarganlar. Shundan go‘yoki “ism va familiya” degan anglashilmovchilik kelib chiqqan. Oqibatda, “Birniki – mingga, mingniki – tumanga” deyilganidek, bu anglashilmovchilik ommaga singib ketgan.

Aziz birodarlar, ko‘zimizni kattaroq ochib, fuqarolik pasportimizga qaraylik. Unda “ismi sharif” yozilmagan-ku. “Familiyasi, ismi, otasining ismi” yozilgan. Shunday yozmaymizmi, baraka topgurlar! Tilni milliylashtirish maqsadida “familiya” so‘zini begona deb o‘ylash ham to‘g‘ri emas. U boshqa tildan kirib kelgan bo‘lsa ham, adabiy tilimiz a’zosi. “Familiya” – baynalmilal so‘z bo‘lgani singari, “sharif” ham ona tilimizga arab tilidan kirib kelgan. “Familiya” bizda huquqiy termin hisoblanadi. Uni allaqanday xushomad epiteti bilan almashtirishga haqqimiz ham yo‘q.

Nusratullo JUMAXO‘JA,
filologiya fanlari doktori,
professor



“Nima uchun ko‘cha harakati qoidasini buzgan kishiga militsiya hushtak chaladi-yu, butun bir tilni buzayotgan odamlarga hech kim hushtak chalmaydi?

Abdulla QAHHOR

AVVAL IQTISOD

OILA VA DAROMAD



Robert Xoll va Maykl Vudford tadqiqotlarining O‘zbekiston uchun ahamiyati



Oila kelgusi daromadiga ishonsa, farzandining ta’limi va uy-joy sharoitini yaxshilash uchun uzoq muddatli reja tuzadi. Tadbirkor mahsulotiga talab bo‘lishini kutsa, yangi uskuna xarid qiladi, xodim yollaydi. Millionlab insonlarning shunday qarorlari mamlakatdagi iste’mol, ishlab chiqarish va bandlikka ta’sir etadi.

2026-yil 12-oktyabrda iqtisodiyot bo‘yicha Nobel mukofoti amerikalik olimlar Robert Xoll va Maykl Vudfordga berilgani e’lon qilindi. Shvetsiya davlat bankining Alfred Nobel xotirasiga ta’sis etgan ushbu mukofoti ularga makroiqtisodiy barqarorlashtirishning mikroiqtisodiy asoslarini rivojlantirgani uchun nasib etdi.

Bu ilmiy ta’rifning mazmunini sodda ifodalash mumkin. Inflyatsiya, iqtisodiy o‘sish va ishsizlikni tushuntirishda oilalarning xarid va jamg‘arish, korxonalarning narx belgilash va ishga qabul qilish qarorlarini hisobga olish kerak. Sovrindorlarning tadqiqotlari O‘zbekistonda aholi daromadini oshirish va samarali bandlikni ta’minlash masalalariga ham shu nuqtayi nazardan yondashishga undaydi.

Robert Xoll 1943-yilda Kaliforniya shtatidagi Palo-Alto shahrida tug‘ilgan. Berklidagi Kaliforniya universitetida tahsil olgach, 1967-yilda Massachusets texnologiya institutida iqtisodiyot bo‘yicha doktorlik darajasini olgan. 1978-yildan uning ilmiy faoliyati Stenford universiteti bilan bog‘liq. Iste’mol, mehnat bozori va iqtisodiy tebranishlarni o‘rgangan olim 2010-yilda Amerika iqtisodiy assotsiatsiyasi prezidenti bo‘lgan.

Xollning 1978-yilgi maqolasi iste’mol rejalari kelajak haqidagi tasavvurlarga bog‘liqligini tahlil qildi. U doimiy daromad va hayotiy davr nazariyalarini rivojlantirib, muayyan shartlar sharoitida odamlar mavjud axborotni bugungi qarorlaridayoq hisobga olishini ko‘rsatdi. Shuning uchun iste’mol rejasini o‘zgartirishga ko‘pincha kutilmagan yangi axborot turtki bo‘ladi. Kelgusi ish haqining barqaror o‘sishi haqidagi ishonchli xabar, masalan, oilaning bugungi xaridlariga ham ta’sir qilishi mumkin.

Shartli misol: oila bir marta o‘n ikki million so‘m mukofot olsa, mablag‘ning bir qismini jamg‘arishi yoki qarzini to‘lashi mumkin. Agar oylik daromadi bir million so‘mga oshsa va bu qo‘shimcha daromad saqlanishiga ishonsa, doimiy xarajatlarini ham qayta rejalashtiradi. Demak, daromadning miqdori bilan birga, uning davomiyligi ham ahamiyatli.

Biroq daromadi past, jamg‘armasi kam yoki qarz olish imkoniyati cheklangan xonadonda kundalik ehtiyojlar ustuvor bo‘ladi. Bunday oila bir martalik yordamning katta qismini ham zarur iste’molga sarflashi mumkin. Shu bois, ijtimoiy dasturlarni baholashda oilalarning imkoniyati va ehtiyojidagi farqlarni hisobga olish lozim.

Mehnat iqtisodiyoti uchun Xollning ishsizlik haqidagi tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega. Uning 2005-yilgi maqolasida ish haqi iqtisodiy sharoitga darhol moslashmaydigan mehnat bozori tahlil qilingan. Bunday vaziyatda yangi xodimni ishga olishdan kutiladigan foydaning kamayishi korxonalarning bo‘sh ish o‘rinlari ochishini keskin sekinlashtirishi mumkin. Natijada ish qidirayotgan kishi uzoqroq kutadi, ishsizlik o‘sadi. Bu natija ish haqini pasaytirish haqidagi umumiy tavsiya emas. U bandlikni tahlil qilishda odamlarning ishdan bo‘shashi bilan birga, yangi ish topish imkoniyatini ham o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi. Xodim malakasi, bo‘sh ish o‘rinlari haqidagi axborot va korxonaning kelgusi buyurtmalarga ishonchi shu jihatdan muhim.

Maykl Vudford 1955-yilda Massachusets shtatidagi Chikopi shahrida tug‘ilgan. U 1977-yilda Chikago universitetini, 1980-yilda Yel huquq maktabini tamomlagan, 1983-yilda Massachusets texnologiya institutida iqtisodiyot bo‘yicha doktorlik darajasini olgan. Chikago va Prinston universitetlarida ishlagan olim 2004-yildan Kolumbiya universiteti professori hisoblanadi. Uning asosiy tadqiqotlari pul-kredit siyosati, inflyatsiya va insonlarning kelajak haqidagi kutilmalariga bag‘ishlangan.

Vudfordning 2003-yilda chop etilgan “Foizlar va narxlar” kitobi zamonaviy pul-kredit siyosatining nazariy asoslarini tizimlashtirdi. U rivojlantirgan yondashuvda korxonalar narxlarni bir vaqtda va bir xil tezlikda o‘zgartira olmasligi hisobga olinadi. Shu sababli, talab yoki foiz stavkasidagi o‘zgarishlar ma’lum vaqt davomida ishlab chiqarish va bandlikka ham ta’sir qiladi. Foiz stavkasi oshsa, kredit hisobiga qilinadigan ayrim xarid va investitsiyalar qimmatlashadi. Talabning sekinlashishi narxlar o‘sishini jilovlashi mumkin, ammo korxonalarning kengayish rejalari ham susayishi ehtimoli bor. Shuning uchun qaror qabul qilishda inflyatsiyaning sababi, iqtisodiy faollik va siyosat ta’sirining kechikib namoyon bo‘lishi hisobga olinadi.

Vudford markaziy bankning jamoatchilik bilan muloqotiga ham katta ahamiyat berdi. Oila uzoq muddatli kredit olganda, korxona yangi ishlab chiqarishni rejalashtirganda, kelgusidagi moliyaviy sharoitni baholaydi. Markaziy bank o‘z qarorlarining sababini va keyingi harakatlar qaysi sharoitlarga bog‘liqligini ochiq tushuntirsa, odamlar asosliroq reja tuzadi. Prognozning qanday shartlarga tayanayotgani aytilsa, vaziyat o‘zgarganda, qaror nega o‘zgarganini ham tushunish osonlashadi.

Ayni paytda, narxlar o‘sishining barcha sababini foiz stavkasi orqali bartaraf etib bo‘lmaydi. Energiya ta’minotida uzilish yoki mahsulot yetkazib berishda to‘siq bo‘lsa, taklifni tiklash choralari ham zarur. Demak, iqtisodiy siyosat muammoning manbasini aniqlash va choralarning o‘zaro ta’sirini baholashga tayanishi lozim.

O‘zbekistonda bu ilmiy qarashlar aholi farovonligini oshirish vazifalari bilan bevosita bog‘liq. Rasmiy statistikaga ko‘ra, kambag‘allik darajasi 2024-yildagi 8,9 foizdan 2025-yilda 5,8 foizga pasaygan. Ishsizlik darajasi esa 2025-yil uchun dastlabki ma’lumotlarda 4,8 foiz deb baholangan; 2024-yilda u 5,5 foiz edi. Bu natijalarni mustahkamlashda mehnat daromadining barqarorligi va ish o‘rinlari sifatiga e’tibor qaratish muhim.

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2026-yil 23-yanvarda o‘tkazilgan yig‘ilishda kambag‘allik va bandlik masalalarini mahalla darajasida hal etishga alohida e’tibor qaratildi. Har bir hududda ish topishga to‘sqinlik qilayotgan omilni aniqlash zarur. Bir joyda malaka, boshqa joyda transport, elektr ta’minoti yoki mahsulotni sotish imkoniyati cheklangan bo‘lishi mumkin. Dastur mazmuni shunga qarab belgilanishi lozim. Fikrimcha, bandlik dasturlarini baholashda ishga joylashganlar soni bilan bir qatorda, olti oy yoki bir yildan keyin ishini saqlab qolganlar ulushini ham kuzatish kerak. Rasmiy mehnat munosabatlari, daromadning xarid qobiliyati va malaka o‘sishi dasturning oila hayotiga ta’sirini aniqroq ko‘rsatadi.

Kasbga o‘qitish ish beruvchining haqiqiy ehtiyojiga tayanishi lozim. Ta’lim muassasasi korxona bilan amaliy tayyorgarlikni yo‘lga qo‘ysa, bitiruvchining ishga moslashishi yengillashadi. Natijani berilgan sertifikatlar soni bilan birga, ko‘nikmaning ish joyida qo‘llanishi orqali baholash foydali. Yoshlar va xotin-qizlarning o‘qish, oilaviy majburiyatlar hamda mehnatni uyg‘unlashtirish imkoniyati ham e’tiborda bo‘lishi kerak.

Oila daromadining barqarorligi ijtimoiy himoya uchun ham muhim. Ehtiyojmand xonadonga tezkor yordam ko‘rsatish bilan birga, muntazam daromad topish imkoniyatini kengaytirish zarur. Bunda sog‘liq, mehnat qobiliyati va parvarish majburiyatlari hisobga olinishi shart. Mehnat qila oladigan kishini munosib ishga yo‘naltirish va ishlash imkoniyati cheklangan insonni ishonchli ijtimoiy himoya bilan qamrab olish bir-birini to‘ldiradi.

Iqtisodiy qarorlarni fuqarolarga tushuntirish ham amaliy ahamiyatga ega. Inflyatsiyaning oila byudjetiga ta’siri, kredit shartlari va davlat dasturlaridan foydalanish tartibi sodda bayon etilsa, odamlar o‘z imkoniyatini to‘g‘riroq baholaydi. Aholi va tadbirkorlarning kutilmalarini muntazam o‘rganish qaror qabul qiluvchilarga qo‘shimcha axborot beradi.

Ushbu takliflar laureatlar g‘oyalarining O‘zbekiston sharoitidagi amaliy talqinidir. Universitetlarimizda ularning asarlarini mahalliy ma’lumotlar asosidagi tadqiqotlar bilan bog‘lab o‘rganish foydali. Bunda norasmiy bandlik, mehnat migratsiyasi va xonadonlar daromad manbalarining xususiyatlari hisobga olinishi kerak. Dasturlarni dastlab cheklangan hududda sinab, natijalarini taqqoslash ularni kengaytirish uchun asos bo‘ladi.

Iqtisodiy siyosatning natijasi inson hayotida sezilishi kerak. Oilaning ertangi daromadiga ishonchi, yosh mutaxassisning munosib ish topishi va tadbirkorning yangi ish o‘rni yaratishi bu natijaning aniq ifodalaridir. Laureatlar tadqiqotlarini mamlakatimiz sharoitida tekshirib, amaliyotga tatbiq etish aholi farovonligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Qalandar ABDURAHMONOV,
O‘zFA akademigi,
iqtisodiyot fanlari doktori,
professor

JAHON AYVONIDA

GERMANIYADA ROSSIYALIKLAR SONI ORTMOQDA

Rossiyaning 2022-yilda Ukrainaga boshlagan keng ko‘lamli bosqini ortidan yarim millionga yaqin rossiyalik o‘z vatanini tark etdi va hanuzgacha ortiga qaytgani yo‘q.



Ushbu migratsiya to‘lqinining Yevropa mamlakatlaridagi asosiy yo‘nalishlaridan biri Germaniya bo‘ldi – mazkur davlatda Yevropa Ittifoqi miqyosidagi eng yirik rossiyaliklar jamoasi shakllangan.

MUXOLIF TELEKANAL YOPILDI



Turkiyaning eng yirik muxolif telekanallaridan biri hisoblangan “Halk TV” o‘z efirini to‘xtatdi – politsiyaning Istanbuldagi idoralarda o‘tkazgan reydi ortidan mazkur kanal davlat boshqaruviga o‘tkazildi.

MATBUOT KOTIBINING OMADSIZ DEBYUTI

AQSH prezidenti Donald Trampning yangi matbuot kotibi Keti Zaxariya o‘z faoliyatini muvaffaqiyatsiz boshladi.



“MS NOW” telekanaliga yashirincha ma’lumot bergan Oq uy vakilining ta’kidlashicha, uning jurnalistlar uchun o‘tkazgan ilk brifingi 15 daqiqadan biroz ko‘proq davom etgan.

HUDUDLARNI ALMASHISH TAKLIFI



Armaniston bosh vaziri Nikol Pashinyan Ozarbayjonga ikki davlat o‘rtasidagi anklav va eksklavlar muammosini hal qilish maqsadida hududlarni o‘zaro almashishni taklif qildi. U bu haqda ijtimoiy tarmoqlarda e’lon qilingan videomurojaati orqali ma’lum qilgan.

YANGI NASHR

BIR RUH BOR

Ha, bu she’rlarda bir ruh bor. Mana shu ruh sham ziyosi xonaning barcha joyiga tarqalgani kabi kitobdagi barcha she’rlarni mazmunan birlashtirib turadi. O‘zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid yozadi: “Alalxusus, sizga tanishtirmoqchi bo‘layotganim shoir inimiz – yosh bola emas, hayotning achchiq-chuchugini, ayniqsa, shoirlikning qattiq nonini allaqachon obdon tatib-kamirib ko‘rgan, buning nimaligini boshidan o‘tkarib-o‘tkarayotgan, eng muhimi, hayot-u odamzod haqida o‘z xulosalariga ega kamtar va xoksor, kamgap ham kamsuqum, o‘y va andishali bir yigit. Yigitki, qirq yilda qirchillama bo‘lgan bir shoir – yaxshi shoir, toza va dardli shoir”.



Kitob “Jonlantirish bo‘limi” (kitob birdan bunday og‘ir nom bilan boshlanganiga hayron bo‘lmang. “Osmondan / osmaukol / olayapti ona yer” – bu yomg‘ir tasviri. Shoir – nekbin), “Yaroqsiz sayyora” (bu nom-da, majoziy ma’noga ega: “Imon-e’tiqodsiz, ishq-muhabbatsiz / yaroqsiz sayyora – ichki dunyongiz”), “Yurak urushlari” (“Sen yo‘qsan. / Asabi buzuq soatning / uchib-uchib tushayotir mo‘ylabi” – yurakning urishlari ham, urushlari ham shunga monand: asabiy, biroq holi tang, quvvat yetishmaganidan arang uradi), “Gulbadan tuproq”, “Jon-joyim”, “Qo‘ligul suv”, “Bir kosa nur”, “Tangaday zulmat”, “She’riy hikoyalar” kabi turkumlarga ajratilgan.

Shoir o‘z she’rlarini o‘tirib olib to‘qimaydi, aksincha, ularning har birini yashab o‘tadi. Shu bois, bu she’rlar qog‘ozda rost va ravon, samimiy aks etadi. “She’r biting, o‘yga cho‘ming, / satriga bomba qo‘ying, / ko‘z tashlagan odamning / yuragi portlab ketsin”, deb yozadi u. Yoki: “azob berar / g‘am norasida / tirnog‘imni qisgan eshikday; / jonim bilan zavq orasidan / o‘tdi umrim qora mushukday” – jon bilan zavqning orasidan qora mushuk o‘tyapti – bu shoirning umri. Yana bir she’rida yozadi: “Shamol bilan olishgan, / oyoqlari chalishgan, / cho‘pday ozib qolishgan / lolalar saf-saf bo‘lib, / ufq sari yo‘l olishgan; / boshiga ming balolar / yog‘sa ham bu lolalar / yoqasidan ololar / tog‘ni, misli erk uchun / yeng shimargan bolalar”... Xuddi cho‘qqilarni zabt etmoqqa qasd etib, tog‘-u toshlarga tirmashgan lolalarning holatida shoir ruhiyatining in’ikosi bor.

“Ruhimga sin solib, / men o‘z qonimda / Klinch holatdagi genni ko‘raman. / Jahannam o‘rtanur o‘tli jonimdan, / O‘zimda telbavor “men”ni ko‘raman”. Klinch – bokschilarning bir-biriga “kiyishib” qolib, jang qilolmay qolgan holati. Ana endi “klinch”ga kirib qolgan organizmdagi hujayralarni tasavvur qiling. Shoir aytadiki, “dunyo yonmayapti, o‘t tushgani yo‘q, / hamma olov mening ichimda ekan”. Ichi yonayotgan odamdan nima kutish mumkin? Shundandir, olov, nur, sham, quyosh, oy obrazlari shoirning sevimli ramzlariga aylangan: “SHAM...ziyo o‘g‘lidirman – / tong ishqda muzlagan, / endigina tili chiqqan / ko‘ksimdagi olovning”.

Kitob “SHAM...ziyo o‘g‘li” deb nomlanishi ham bejiz emas. Bu nom ham, aslida, shoirning o‘zi – kengaygan holda Shuhrat Aziz Mengziyo o‘g‘lidir. Inchunun, har bir she’r – shoirning tarjimayi holi, degan fikrni ushbu kitob to‘la-to‘kis dalillaydi, desak, ayni haqiqat bo‘ladi.

Bu she’rlar o‘quvchidan alohida tayyorgarlik va diqqatni talab qilishini aytmoq kerak. Masalan, “zero, hazm bo‘lmas Hazrat Yunusni / yutgan baliq edi – Amir Husayn” singari so‘z orasida aytib ketiladigan ko‘plab ishoralarning ma’nosini chaqish uchun o‘quvchi nafaqat Amir Husayn, balki Hazrat Yunus tarixidan ham boxabar bo‘lishi kerak.

Uchta she’riy hikoya – “Jayron bir o‘qraydi: “Bosib ursammi?!” / – Hushing joyidami? O‘zda borsanmi? / Men senga qizlikda izingdan yurgan / Yigitni aytgandim. Ismi Arslonmi?” singari quyma satrlar bilan bezangan “Arslon mo‘yloviga qo‘l cho‘zgan ayol”; “Manov daryoga boq, sochlari yoyiq / Lablari... lablari – qip-qizil qayiq... / Bir jonon daryoki, yastanib yotar, / Harorati oshgan sutday betiyiq. / O‘ynar suv yuzida barglar soyasi, / Bamisli eng shirin dardlar doyasi. / (Oyoq chalkashtirib yotgan daryoning / Girdobdir ikkala oyoq orasi...) kabi xuddi Usmon Nosirning “Naxshon” dostonidagi “Bog‘larga namozgar salqini tushdi” deb boshlanuvchi bebaho tasvirlariday balog‘atlagan satrlardan iborat “Oltin taqa” va Ka’badil degan noyob ismli qahramoni bo‘lgan “O‘zbekcha sevgi” nomli asarlarda kechayotgan voqealar, ya’ni syujetni ko‘zdan qochirmaslik uchun mag‘izga to‘yingan satrlarni g‘oyat sinchiklab o‘qish zarur bo‘ladi. Hali adabiyotshunoslarimiz bu she’riy hikoyalarni chiroyli tahlil qilib berar, degan umidimiz bor.

Darvoqe, kitob mutolaasini tugatib, undagi alohida belgilangan satrlarga yana bir qur ko‘z tashlab turganimda, nogoh telefonimga mana bu surat bilan bir she’r kelib qoldi.



DIQQAT, QIDIRILMOQDA!


Diqqat, roppa-rosa o‘ttiz yil oldin
Chiroyiga uchgan manov shunqorni...
Kim biladi, bugun ne kechdi holi,
Bu dunyoda ko‘rgan-bilganlar bormi?!
O‘shanda bir qizni sevib u jondan
O‘zini yo‘qotib qo‘ygan jununda.
Chiqqan-u beshinchi yotoqxonadan
Bedarak ketgan so‘ng dorilfununda.
Bundaylarning odam bo‘lishi qiyin...
Shuncha yil...
Hech kimga dil yormadimi!?
Yuragi og‘rigan bu telba keyin
Dunyoga o‘t qo‘yib yubormadimi?..

Shoir shu g‘aroyib ruhda o‘zini qidirishda davom etadi. Oxir oqibat, u o‘zini ota uyidan topadi. Biz esa uni kitoblaridan, she’rlaridan topamiz.

Ikrom ISKANDAR

TARIX VA TAQDIR

MATQULOV – XULUSIYEV



2009-yili “Sharq” nashriyotida chop etilgan “Qatag‘on qurbonlari (1938-yil fevral, sentyabr). Beshinchi kitob”da Ahmad Xulusiyev haqida ham qisqagina ma’lumot berilgan. Unda 1888-yili tug‘ilgan qo‘qonlik Ahmad Xulusiyev “bosmachilar yugurdagi”, “aksilinqilobiy tashkilotlar” ishtirokchisi sifatida ayblanib, 1938-yil 9-fevralda O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi “Uchlik” qarori bilan otuvga hukm qilinganlar qatorida tilga olingan. Oradan o‘n yetti yil o‘tib qo‘limizga tushgan yangi arxiv hujjatlari esa, bu qisqa ma’lumot ortida ancha murakkab, ziddiyatlarga boy inson taqdiri turganini ko‘rsatdi. Endi Ahmad Xulusiyev hayotini unga o‘qilgan so‘nggi hukm orqali emas, balki bosib o‘tgan yo‘li, kasb-kori, harbiy va siyosiy faoliyati hamda u yashagan davr voqealari bilan bog‘liq holda kuzatish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Ahmad Xulusiyev charmgar-batrak oilasida dunyoga kelgan. Ayrim hujjatlarda uning tug‘ilgan joyi Yangiobod mahallasi, boshqa bir hujjatda esa Kuybishev rayonining Sariqand qishlog‘i sifatida ko‘rsatiladi. Tergov materiallarida uning avvalgi ismi Jo‘ra Matqulov yoki Jo‘ra Xo‘ja, familiyasi esa Matqulov bo‘lgani haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Biroq bu ism-familiya qachon va qanday sabab bilan o‘zgargani aniqlashtirilmagan. Bu kabi tafovutlar qatag‘on davri tergov materiallariga tanqidiy yondashish zarurligini yana bir bor eslatadi.

Uning yoshlik yillari haqidagi ma’lumotlar ham asosan tergov jarayonida to‘plangan ko‘rsatmalar orqali yetib kelgan. 1937-yil 22-noyabrda so‘roq qilingan guvohlardan biri Xulusiyevni ancha avvaldan tanishini aytgan. Uning ko‘rsatmasiga ko‘ra, Ahmad Xulusiyevning singlisi Sariqandda o‘ttiz yil davomida mingboshi bo‘lgan Sanjar Musayevning o‘g‘liga turmushga chiqqan. Xulusiyev shu xonadonga tez-tez kelib turgan va guvoh uni o‘sha kezlardan beri yaxshi bilgan. Ko‘rsatmada yana bir e’tiborli tafsilot uchraydi. U tanish bo‘lgan yillarda Ahmad Xulusiyev Jo‘ra Matqulov ismi bilan yurgan. Guvoh uning ism-familiyasi qachon va nima sababdan o‘zgarganini bilmasligini ham aytadi. So‘roq davomida esa ancha og‘ir da’vo o‘rtaga tashlanadi: 1904-1905-yillar atrofida Jo‘ra Matqulov qo‘qonlik bir boyning katta miqdordagi pulini o‘g‘irlab, Makkaga ketgan. Tergov materiallarida bu da’voni tasdiqlovchi boshqa dalil keltirilmagani bois, uni Xulusiyev hayotining aniq fakti sifatida mutlaqo qabul qilib bo‘lmaydi. Guvoh, qolaversa, Xulusiyevning Buxoro amiri saroyidagi xizmati va Turkiya bilan bog‘liq ayrim tafsilotlarni bevosita o‘zi bilmagan. U bu gaplarni Qaroteginda uchratgan Mullo Isomiddindan eshitganini so‘roq paytida qayd etgan.

Rasmiy ayblov xulosasida esa uning xorijdagi hayoti 1912-yildan boshlanadi: unga ko‘ra, Ahmad Xulusiyev shu yili Turkiyaga muxojir bo‘lib, 1919-yilga qadar Turkiya armiyasida ofitser sifatida xizmat qilgan. Demak, qo‘limizdagi hujjatlar sanalar va tafsilotlarda bir-birini to‘liq takrorlamaydi. Ammo ularni birlashtirib turgan muhim jihat bor: Xulusiyev hayotining katta bir qismi Vatandan tashqarida o‘tgan, Makka va Turkiyadagi yillar esa uning keyingi harbiy-siyosiy faoliyatida muhim o‘rin tutgan.

Uning Buxoroga qaytishi bilan hayotida yangi, yanada murakkab bosqich boshlanadi. Ayblov xulosasida 1919-yili Turkiyadan Buxoroga kelgani va “Taraqqiyparvar” milliy tashkiloti vakili sifatida “Milliy ittihod”ni tashkil etishda ishtirok etgani yozilgan. Boshqa arxiv ma’lumotlarida esa uning Buxoro amiri saroyida harbiy askarboshi bo‘lib xizmat qilgani tilga olinadi. Shu o‘rinda yana bir ziddiyatga duch kelamiz: bir ma’lumotda Xulusiyev 1917-yili inqilobiy faoliyati uchun Buxoro amirligi tomonidan qamoqqa olinib, Qorateginga surgun qilingani aytilsa, 1938-yilgi ayblov xulosasida uning 1919-yilgacha Turkiya armiyasida xizmat qilgani ko‘rsatiladi. Shuning uchun bu davr voqealarini qat’iy hukm bilan emas, turli arxiv manbalarida saqlangan ma’lumotlar sifatida baholash to‘g‘riroq bo‘ladi. Har holda, uning hayotida harbiy faoliyat tasodifiy epizod bo‘lmagan. Manbalar uni Turkiya armiyasi ofitseri, Buxoro amiri saroyida harbiy askarboshi, keyinchalik esa Beshariqda joylashgan ko‘ngillilar eskadroni komandiri sifatida tilga oladi. Bu ma’lumotlar uning muayyan harbiy tajribaga ega shaxs bo‘lganini anglatadi.

1920-yillardan keyingi hayoti haqida hujjatlar ancha siyraklashadi. Ilgari nashr etilgan ma’lumotlarda 1930-yili “bosmachilik harakati” uchun javobgarlikka tortilgani keltiriladi. Shu bilan birga, arxiv hujjatlarida uning 1919-yildan partiya a’zosi bo‘lgani ham qayd etilgan. Bu ikki holatning bir shaxs tarjimayi holida yonma-yon turishi davrning o‘zi qanchalik murakkab bo‘lganini ko‘rsatadi. Uning hayotini keyingi yillarda faqat bir siyosiy qolip bilan izohlash qiyin: turli davrlarda turli kuchlar bilan bog‘langan, harbiy va siyosiy jarayonlarda qatnashgan bu inson 1930-yillarning oxirida endi o‘tmishdagi faoliyati uchun javob berishga majbur etilayotgan edi.

1937-yilga kelib vaziyat keskin o‘zgardi. Endi tergov organlarining diqqati Xulusiyevning o‘tmishidan ko‘ra, uning kimlar bilan uchrashgani, nimalar haqida suhbatlashgani va siyosiy voqealarga qanday munosabat bildirganiga qaratildi. Ayniqsa, Fayzulla Xo‘jayev bilan bog‘liq gaplar keyinchalik unga qo‘yilgan ayblarning muhim qismini tashkil etdi.

1937-yil yozida So‘xdagi Qodirov nomli kolxozda hisobchilar kursi davom etayotgan edi. Kurs qatnashchilaridan biri gazetani varaqlab o‘tirib, Fayzulla Xo‘jayevning “xalq dushmani” sifatida hibsga olingani haqida gap ochadi. Shu yerda bo‘lgan Ahmad Xulusiyev bu xabarga ishonmaydi. U Xo‘jayevning Buxoro voqealaridagi xizmatlarini eslab, uni hibsga olishlari mumkin emasligini, aksincha, O‘zSSR Xalq Komissarlari Soveti raisi lavozimiga yana tayinlangani haqida eshitganini aytadi. Ko‘p o‘tmay davraga Mirzajon Rahimov va Orif Ziyayev ham keladi. Ular Moskvadan qaytganlarini aytib, Xulusiyevning gapini quvvatlaydilar. Shu tariqa, gazeta ustida boshlangan oddiy suhbat Fayzulla Xo‘jayev taqdiri haqidagi bahsga aylanadi. Xulusiyev bu davrada o‘zining Buxoro voqealari bilan bog‘liq o‘tmishini ham tilga oladi. Turkiyadan qaytgach, Fayzulla Xo‘jayevga yordam berganini, 1936-yili Toshkentdagi bir slyotda uning inqilobiy faoliyati haqida nutq so‘zlaganini va bu chiqishi uchun 1000 so‘m mukofot olganini aytadi.

O‘sha paytda aytilgan bu gaplar bir necha oydan keyin tergov bayonnomalarida Xulusiyevning o‘ziga qarshi qayd etiladi. Uning Fayzulla Xo‘jayev haqidagi fikrlari “maqtaganlik”, hibs xabarini inkor etishi esa “ig‘vogarona gaplar tarqatganlik” deb baholanadi. Gazeta atrofida boshlangan o‘sha suhbat endi tergov ishida Xulusiyevga qo‘yilgan siyosiy ayblovlardan biri edi. Shu tariqa, uning o‘tmishdagi harbiy-siyosiy faoliyati bilan 1937-yildagi og‘zaki mulohazalari tergov materiallarida bitta ayblov zanjiriga halqalanib-halqalanib boravergan.

1937-yil 7-dekabrda Ahmad Xulusiyev Qo‘qon turmasiga tashlandi. Oradan ikki oycha vaqt o‘tmay, 1938-yil 29-yanvarda davlat xavfsizligi kichik leytenanti Vokulenko 13998-sonli ayblov xulosasini rasmiylashtirdi. Unda Xulusiyevning Turkiyadagi xizmati, Buxorodagi faoliyati, “Milliy ittihod” bilan bog‘liqligi, Fayzulla Xo‘jayev va Akmal Ikromov haqidagi fikrlari bir butun “aksilinqilobiy faoliyat” sifatida talqin qilindi. Oradan o‘n bir kun o‘tib, 1938-yil 9-fevralda O‘zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligi huzuridagi “Uchlik”ning 70-sonli bayonnomasi bilan 114 mahbus otuvga, yana 43 kishi o‘n yillik qamoq jazosiga hukm qilindi. Otuv jazosi belgilanganlar orasida 50 yoshli Ahmad Xulusiyev ham bor edi. Uning ortida ayoli Marhamatoy, qizi Rahbarxon va o‘g‘li Po‘lat qoldi. Nohaq hukmning qayta ko‘rib chiqilishi uchun esa yarim asrdan ko‘proq vaqt kerak bo‘ldi. 1989-yil 24-mayda Ahmad Xulusiyev reabilitatsiya qilindi. Oradan 51 yil o‘tib qabul qilingan bu qaror uning fojiali qismatini o‘zgartira olmasdi. Ammo u Xulusiyev nomi bilan birga o‘nlab yillar saqlanib kelgan ayblovlarga huquqiy nuqta qo‘ydi.

Endi tarixchilar zimmasida arxiv hujjatlarini qayta o‘qish, ulardagi ayblovlar ortida qolgan voqealarni tiklash, Ahmad Xulusiyevning hayot yo‘liga o‘z davri voqeligi nuqtayi nazaridan baho berishdek muhim va mashaqqatli vazifa turibdi. Shundagina “qatag‘on qurboni” degan ikki so‘z ortida bir insonning qanchalik murakkab va fojiali hayot yo‘li turganini to‘laroq anglaymiz.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor



“Kim o‘z yurtini sevmasa,
hech nimani seva olmaydi.”
Jorj BAYRON

KO‘NGIL KALITI

XUROSONDA O‘ZBEK TILI



Afg‘oniston aholisining salmoqli qismini tashkil etuvchi o‘zbeklar mamlakatning shimoliy va shimoli-sharqiy viloyatlari, shuningdek, Kobul va Hirot shaharlarida qadimdan istiqomat qilib keladi. O‘lkadagi asosiy qonunning 16-moddasiga muvofiq, aholining ko‘pchiligi o‘zbek tilida so‘zlashadigan hududlarda mazkur til rasmiy maqomga ega. Ammo 1873-yilda Kobulda ilk bosmaxona tashkil etilgan bo‘lishiga qaramay, turli tarixiy sharoit sababli o‘zbekcha chiqqan kitoblar soni ellik nomdan oshmagan.

Ma’lumki, qadim Xuroson zaminida o‘zbek adabiyoti juda teran ildiz otgan. Bundagi ilk salmoqli adabiy harakat XV asrda Hirotda boshlangan. Buyuk Temuriylar davrida ijod qilgan Lutfiy Hiraviy o‘zbek tilida go‘zal she’rlar bitgan va “Gul va Navro‘z” dostonini yaratgan ustozlardan biridir. Bu adabiy an’anani Alisher Navoiy yuksak darajada davom ettirib, “mamlakatni yakqalam” etdi, o‘zbek tili va adabiyotining asoschisi sifatida dunyoga tanildi. Vaqt o‘tishi bilan Balx vohasi ham Ashtarxoniylar davrida o‘zbek tili va adabiyotining yangi, yirik markaziga aylandi. Keyinchalik mintaqadagi tarixiy taqozo bilan bu adabiy muhit asta-sekin Amudaryoning narigi sohiliga ko‘chdi. Bu jarayon ikki qo‘shni zamin o‘rtasidagi adabiy aloqalar va umumiy madaniy merosning yanada boyishiga xizmat qildi.

Xo‘sh, tarixiy evrilishlardan keyin ham Afg‘oniston zaminida o‘zbek adabiy an’analari qanday omillar tufayli yashab qoldi?

Avvalo, o‘zbeklar orasida keng tarqalgan an’anaviy kitobxonlik yig‘inlari milliy adabiyot va madaniyatni asrab qolishda bosh omil bo‘lgan. Bu ma’rifiy davralarda Mir Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Muhammad Sulaymon o‘g‘li Fuzuliy, Xo‘janazar So‘fi Allohyor va Boborahim Mashrab kabi ulug‘ ijodkorlarning asarlari hamda “Shohnoma”ning o‘zbekcha tarjimasi sevib o‘qilgan. Ikkinchidan, turkiyzabon aholi orasida faoliyat yuritgan norasmiy madrasalarda adabiy asarlar ta’lim dasturining ajralmas qismi hisoblangan. Uchinchidan esa, Amudaryoning ikki sohilida joylashgan hududlar o‘rtasidagi faol savdo aloqalari natijasida madaniy qadriyatlar almashinuvi ham yo‘lga qo‘yilgan.

Bundan tashqari, har yili Afg‘onistondan bir guruh yoshlar ilm izlab, Buxoro va Samarqanddagi ilmiy-madaniy markazlarga kelishgan. Natijada, ular o‘zbek adabiyoti bilan yanada yaqindan tanishib, ushbu nodir kitoblarning ayrimlarini Afg‘onistonga ham olib o‘tishgan.

Tarixiy va siyosiy sharoitlar taqozosiga ko‘ra, 2003-yilga qadar Afg‘onistonda matbaa va noshirlik sohasi muayyan qiyinchiliklarni boshdan kechirgan va bu o‘zbek tilidagi adabiyotlar nashriga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmagan. Kobulda dastlabki matbaa markazi tashkil etilganidan to‘qson yil o‘tib, ya’ni 1963-yilga kelibgina Afg‘oniston hududida o‘zbek tilidagi ilk nodir madaniy meros namunasi – ulug‘ mutafakkir va davlat arbobi Sulton Husayn Mirzoning she’riy devoni rasman nashr etildi. 1978-yildan keyingi davrda mamlakatdagi tegishli vazirliklar, Fanlar akademiyasi va ijodiy uyushmalar tomonidan o‘zbek tilidagi asarlarni chop etish ishlariga jiddiy e’tibor qaratila boshladi. Madaniy-ma’rifiy yo‘nalishdagi bunday qadamlar mahalliy ijodkorlarning o‘z ona tilida badiiy asarlar yaratishiga ma’rifiy rag‘bat berdi. O‘sha davrda o‘zbek adabiy muhitini rivojlantirishga Vohidiy Juzjoniy, Matin Andxo‘yi, Ashraf Azimiy, Shafiqa Yorqin, Oyxon Bayoniy, Burhoniddin Nomiq, Toshqin Bahoyi va Qayyum Aziziy kabi taniqli ijodkorlar katta hissa qo‘shgan.

1978-yildan keyin Afg‘oniston ta’lim tizimida muayyan islohotlar o‘tkazilib, o‘zbek va turkman bolalari boshlang‘ich ta’limni o‘z ona tilida olish imkoniga ega bo‘ldi. Maorif vazirligi tizimida maxsus o‘zbek tili bo‘limi tashkil etildi, Kobul universitetida esa o‘zbek tili va adabiyoti bo‘limi ochilib, unga O‘zbekistondan tajribali mutaxassislar jalb qilindi. Shuningdek, ilk o‘zbekcha gazeta – “Yulduz” chop etila boshladi. Biroq 80-yillarning o‘rtalariga kelib, ichki siyosiy beqarorlik oqibatida mazkur ta’lim dasturi faoliyati to‘xtab qoldi. Mamlakatdagi mafkuraviy qarama-qarshiliklar tufayli maorif tizimi jiddiy inqirozga duch keldi. Shunday bo‘lsa-da, 1990-yilda Kobulda Alisher Navoiy nomidagi uyushma tashkil etildi. Ish boshlaganiga hali to‘rt yil ham to‘lmay, bu tashkilot Mozori Sharifga ko‘chirildi. Ushbu uyushma asosan o‘zbek tilini rivojlantirish, milliy bayramlarni o‘tkazish, ona tilida kitob, gazeta va jurnallar nashr etish bilan shug‘ullandi. Afsuski, mamlakatdagi siyosiy talotumlar tufayli uning ham umri uzoq bo‘lmadi. Ammo Alisher Navoiy uyushmasining yodgorligi sifatida “Muhabbatnoma”, “Shajarayi tarokima” va “Yurak so‘zlari” kabi nodir asarlar qo‘limizda qoldi.

Afg‘oniston ommaviy axborot vositalari tarixida o‘zbek tilidagi ilk radioefir 1972-yilda, bosh vazir Muso Shafiq davrida yarim soatlik dastur shaklida yo‘lga qo‘yilgan edi. Biroq keyingi yillarda mamlakatda yuz bergan o‘zgarishlar sabab ushbu eshittirish ham to‘xtatildi. 1998-yilgi siyosiy vaziyat oqibatida o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishidagi madaniy-ma’rifiy faoliyat ko‘lami cheklanib qoldi.

Shu tariqa, uzoq yillar davomida yuzaga kelgan noqulay sharoitlar tufayli Afg‘oniston o‘zbeklari o‘z ona tilida ta’lim olish, matbaachilik va adabiy merosni keng targ‘ib qilish sohalarida muayyan cheklovlarga duch keldi. Mintaqadagi siyosiy va ma’muriy chegaralar sababli Markaziy Osiyodagi umumiy adabiy muhitdan uzilib qolish milliy adabiyot rivojining sustlashishiga olib keldi. Natijada, ko‘plab afg‘onistonlik o‘zbek ijodkorlari o‘z asarlarini boshqa tillarda yaratishga majbur bo‘ldilar. Shunga qaramay, ayrim fidoyi shoirlar o‘zbek tilidagi adabiy an’analarni izchil davom ettirdi. Ular Ahmad Yassaviy, So‘fi Allohyor, Alisher Navoiy, Fuzuliy, Mashrab va Huvaydo kabi mumtoz adiblarning asarlaridan ilhomlanib ijod qildi. Xususan, Qodiriy Palang-po‘sh, Mavlono Ne’matulloh Mahviy Qaysoriy, Junaydulloh Hoziq, Nodom Qaysoriy, Muqimiy Andxo‘yi, Qurbat, Samimiy, Nazihiy Jilva, G‘amgin, Xayriy Faryobiy, Navo, Mavlaviy Ilmiy, Mavlaviy Nusrat, Anbar, Nafiri Faryobiy, Ergash Uchqun va Matin Andxo‘yi kabi ijodkorlar Afg‘oniston zaminida o‘zbek so‘zi va adabiy an’analarini saqlab qolish hamda kelajak avlodga yetkazishga salmoqli hissa qo‘shdilar.

O‘sha davrda badiiy ijodning asosan she’riyat yo‘nalishi bilan cheklanib, nasriy asarlar rivojining biroz orqada qolgani yaxlit adabiy muhitning shakllanishiga muayyan darajada o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. Quvonarlisi, XXI asr boshlari Afg‘oniston o‘zbeklarining madaniy hayotida ancha unumli davr bo‘ldi. O‘zbek tiliga rasmiy maqom berildi. Kobul universitetida O‘zbek tili va adabiyoti bo‘limi faoliyati qayta tiklandi. Shu bilan birga, Faryob, Juzjon, Saripul, Balx va Taxor universitetlarida ham tegishli kafedralar ochilib, Afg‘oniston oliy ta’lim tizimida milliy tilni akademik darajada o‘qitish yo‘lga qo‘yildi. Radio, televizion va matbuot nashrlarida o‘zbek tiliga munosib o‘rin ajratilib, maxsus o‘zbek telekanallari hamda radiotarmoqlari ishga tushirildi. Eng muhimi, O‘zbek tili bayrami kuni mamlakatning rasmiy taqvimidan joy oldi. Bu esa mahalliy o‘zbeklarning milliy o‘zligini asrab-avaylash yo‘lidagi madaniy irodasi, etnik birdamligi va ijtimoiy matonatining ramzi hisoblanadi.

Shu tariqa, 2019-yildan beri Afg‘oniston o‘zbeklari o‘z ona tili bayramini vatanda ham, xorijda ham madaniy qadriyatlarga bo‘lgan yuksak hurmat va sadoqat ruhida nishonlab kelyaptilar. Turli muhtasham madaniy-ma’rifiy tadbirlar, yirik ilmiy anjumanlar, yangi kitoblar taqdimoti va fayzli adabiy uchrashuvlar tashkil etilyapti. Bu qutlug‘ anjumanlarda ona tilimizning bebaho qadri, millat ko‘zgusi sifatidagi beqiyos o‘rni hamda uni kelajak avlodlarga bezavol, asl holida yetkazishdek muqaddas masalalarga alohida e’tibor qaratilyapti.

Mamlakatdagi mavjud vaziyat va o‘zgarishlardan qat’i nazar, Afg‘oniston o‘zbeklari ona tili milliy kunini e’zozlash an’anasidan voz kechgani yo‘q. Bu qutlug‘ ayyom xalqning o‘zlikni anglash yo‘lidagi madaniy irodasini namoyon etib, insonlarni ma’naviy qadriyatlar atrofida jipslashtirishga xizmat qilyapti. Ona tilini asrab-avaylashga bo‘lgan bunday qat’iy intilish xalq diplomatiyasining eng go‘zal namunasidir.




Azizullah ARAL,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi faxriy a’zosi

Aslida, Afg‘onistonda “O‘zbek tili bayrami kuni”ni nishonlash tashabbusi 2018-yil kuzida, O‘zbekiston elchixonasidagi uchrashuvdan so‘ng paydo bo‘lgan. O‘shanda elchi Yodgorxo‘ja Shodmonov bir guruh afg‘onistonlik o‘zbek ziyolilarini madaniyat sohasidagi xizmatlari uchun taqdirlagandi. Bu e’tirofdan ruhlangan ijodkorlar ikki davlat o‘rtasidagi madaniy aloqalarni yanada mustahkamlash uchun yangi g‘oya atrofida birlashdi. Ziyolilarning taklifi mamlakat rahbariyati tomonidan to‘liq ma’qullanib, Vazirlar Mahkamasi qarori bilan 21-oktyabr (29-Mezon) rasman “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e’lon qilingandi. Kobuldagi ilk tantanada O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tabrigi Prezident saroyida ilk bor o‘zbek tilida o‘qib eshittirilgandi. Bu tarixiy voqea ikki davlat o‘rtasidagi madaniy hamkorlikda yangi sahifa ochdi. Shu tariqa, bu zaminda o‘zbek tilining nufuzini yuksaltirish yo‘lidagi ezgu ishlar boshlanib ketdi. Afg‘oniston o‘zbeklari ushbu qutlug‘ ayyomni har yili muntazam nishonlab keladi.

Hozirda ushbu qutlug‘ sana xalq orasida “O‘zbek tili milliy kuni” nomi bilan ham mashhurdir. Bu bayram Afg‘oniston o‘zbeklarining o‘z ona tiliga bo‘lgan cheksiz mehr-muhabbati, milliy o‘zligini anglash tuyg‘usi va boy madaniy merosni kelajak avlodlar uchun asrab-avaylashga bo‘lgan intilishining eng yorqin ifodasi hisoblanadi.

SHOHSUPADA AKBARSHOH



Boshlanishi 1-sahifada.

Mamlakatimiz tarixida bu sohada hali bunday yuksak muvaffaqiyat kuzatilmagandi. Dunyoning yuz to‘qsonga yaqin davlatidan eng iqtidorli yoshlar qatnashgan ushbu bellashuvda AQSH, Janubiy Koreya, Xitoy va Yaponiya kabi texnologiya yetakchilarini ortda qoldirib, shohsupaning eng yuqori pog‘onasiga ko‘tarilganimiz barchamizni g‘ururlantirdi.

Mana shu tarixiy g‘alabaga o‘z hissasini qo‘shgan qahramonlarimizdan biri, Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi, “Kelajak bunyodkori” medali sohibi **Akbarshoh QOSIMOV** tahririyatimiz mehmoni bo‘ldi.



– Akbarshoh, avvalo, tarixiy g‘alaba muborak bo‘lsin! Robototexnika olami bilan ilk bor qachon va qanday tanishgansiz? Sizni bu sohaga nima tortgan?

– Muhandislik va robototexnikaga 2022-yilda, hali maktabda o‘qib yurgan paytlarimda kirib kelganman. Televizordami yoki internetdami muhandislikka oid yangiliklarni, turli qiziqarli loyihalarni ko‘rganim sari havasim ortib boraverdi. Ayniqsa, koinotni tadqiq qilish, kosmik yo‘nalishlar meni butunlay o‘ziga maftun qilib qo‘ydi. Xudoga shukur, o‘sha paytdagi oddiygina havas va tinimsiz mehnat meni bugungi darajaga olib keldi. Hozir robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi sifatida yurtimiz sharafini himoya qilayotganimdan g‘ururlanaman.

– O‘sha paytlarda robototexnika o‘quv markazlari va to‘garaklarining ahvoli qanday edi?

– To‘g‘risi, oldin bizda robototexnika to‘garaklari va o‘quv markazlarining aniq bir tizimi yo‘q edi. Har kim o‘z bilganicha, har xil dastur bilan dars o‘tardi. Eng katta muammo esa bunaqa markazlarning deyarli hammasi faqat katta shaharlar yoki tuman markazlarida edi. Qishloqlarda, chekka-chekka joylarda yashaydigan tengdoshlarimiz uchun u yerlarga qatnab, murakkab mexanizmlarni o‘rganish chinakam bosh og‘rig‘i bo‘lgan, desam yanglishmayman. Oqibatda, bu sohaga qiziqqan qishloq bolalari chetda qolib, imkoniyat markazga yaqin bo‘lganlargagina nasib qilardi.

Mana shu adolatsizlik va jiddiy muammoning oldini olish uchun jamoamiz bilan bosh qotirib, “Uchqun” nomli loyihani yaratdik. Bu platforma “uchqun.app” veb-saytida joylashgan. Endi chekka qishloqda yashaydimi yoki shahar markazidami, umuman ahamiyati yo‘q, hamma bir xil sharoitda saytga kirib, muhandislik sirlarini bemalol o‘rgana oladi. Saytga o‘zimizning sharoitga moslashtirilgan eng zarur darsliklar, videodarslar va qo‘llanmalarni joylaganmiz. Xullas, sohani o‘rganmoqchi bo‘lgan odamga nimaiki kerak bo‘lsa, hammasini bir joyga jamlaganmiz.

– Jamoa safida qatnashgan ilk musobaqangiz natijasi qanday bo‘lgan?


– Albatta, bu voqea juda yaxshi esimda. Loyihamiz bilan katta sahnaga ilk bor “NASA Space Apps Challenge” xalqaro musobaqasiga chiqqandik. Kosmik tadqiqotlar yo‘nalishida, sun’iy yo‘ldoshlarga bag‘ishlangan loyiha tayyorlagandik. Yashirib nima qildim, unda natijamiz unchalik maqtangulik bo‘lmagan. Sababi oddiy, hali tajribamiz kam, birinchi marta qatnashishimiz edi. Lekin bu omadsizlikdan aslo tushkunlikka tushmadik. Aksincha, o‘sha musobaqa biz uchun haqiqiy maktab bo‘ldi, katta tajriba orttirdik. Ko‘nglimizni cho‘ktirish o‘rniga, o‘zimizga bo‘lgan ishonchimizni yanada oshirdik.

– So‘nggi yillarda davlatimiz tomonidan robototexnika va STEM sohalariga qaratilayotgan e’tibor kundalik faoliyatda nimalarda ko‘rinyapti?

– To‘g‘risi, sohamizga bo‘lgan munosabat va e’tibor tubdan o‘zgardi. Buning yaqqol isbotini har bir hududda zamonaviy texnologiyalar va Innovatsion texnoparklarning ochilayotganida ko‘rish mumkin. Bundan tashqari, Yoshlar markazlarida robototexnika va muhandislik yo‘nalishlarining tashkil etilayotgani biz kabi yoshlarga o‘z iqtidorini namoyon etish uchun keng yo‘l ochib beryapti. Kundalik ishimizda zamonaviy sharoitlar va infratuzilma yaratilgani bu e’tiborning mahsulidir.

– Jamoaning xalqaro tanlovga tayyorgarlik ko‘rishi hamda ishtirok etishi uchun berilgan amaliy ko‘mak haqida gaplashaylik.

– Janubiy Koreyadagi musobaqaga puxta hozirlik ko‘rishimiz, ovqatlanish, yotoq joy, aviachiptalar va boshqa xarajatlarni Yoshlar ishlari agentligi to‘liq o‘z bo‘yniga oldi. Buning uchun ulardan juda minnatdormiz. Tayyorgarlik jarayonida ham, safar davomida ham biror kamchilikka duch kelmadik.



Bizni har bir bosqichda oxirigacha suyab, qo‘llab-quvvatlab turishdi. Xalqaro musobaqada boshqa davlatlarning o‘z yoshlarini bunaqa darajada qo‘llab-quvvatlaganini ko‘rmadim ochig‘i. Aksincha, juda ko‘p xorijlik tengdoshlarimiz bizdan: “Koreyaga qanday keldinglar, yo‘lkira, jihozlarni kim olib berdi?” deb surishtirdi. Barcha xarajatlarimizni davlatimiz to‘liq ta’minlab berganini aytganimizda, ularning lol qolganini ko‘rsangiz edi. “Nahotki? Biz bu yerga o‘z yonimizdan, ota-onamizning puliga katta xarajat qilib keldik”, deyishdi. Mana shunda yurtimizda yoshlar siyosati qay darajada yuksak ekanini yana bir bor dildan his qildik.

– O‘n yildan keyin yurtimizdagi robototexnika sohasini qanday tasavvur qilasiz?

– O‘sha paytga borib bu soha bizda yirik sanoat darajasiga chiqishini juda-juda xohlaymiz. Bu bizning keyingi besh yillikdagi Robototexnika assotsiatsiyasi bilan birgalikda qiladigan eng asosiy va strategik rejamiz hisoblanadi. Muhandislik yo‘nalishi O‘zbekiston iqtisodiyotining bosh drayverlaridan biriga aylanishini chin dildan istaymiz. Mazkur soha mamlakat yalpi ichki mahsulotini hamda davlat daromadlarini sezilarli darajada oshiradigan ulkan quvvatga aylanishi kerak. Buning uchun, albatta, bor kuch va salohiyatimizni ishga solamiz.

– G‘alaba shohsupasidagi Akbarshohning hayajonli daqiqalari va Prezidentimiz farmoni bilan mukofotlangan paytdagi taassurotlar bilan o‘rtoqlashsangiz.

– Bu tuyg‘uni so‘z bilan aytib berish qiyin! Chet elda yurtimiz sha’nini himoya qilayotganimizda, zimmamizda katta mas’uliyat borligini har soniya his etib turdik. Xalqimiz, Yurtboshimiz, ota-onamiz va ustozlarimiz bizni g‘alaba bilan qaytishimizni kutishayotgani juda katta kuch berdi. Bu ishonch bizni keyingi musobaqalarda ham tark etmaydi. Xudo xohlasa, shu sur’atda davom etib, bizga bildirilgan ishonchni oqlaymiz. O‘zbek yoshlari aslida nimalarga qodirligini butun dunyoga yana ko‘p marta ko‘rsatib, bayrog‘imizni doimo eng baland cho‘qqilarga qadaymiz!

G‘alaba hayajoniga to‘xtaladigan bo‘lsam, quvonchimizning cheki yo‘q! Musobaqaning eng oxirgi soniyalarida butun jamoa bir jon, bir tan bo‘lib, bor kuchini ishga soldi. So‘nggi soniyalarda robotimiz eng baland pog‘onaga ko‘tarilishga ulgurdi! Mana shu ball bizga juda kerakli bo‘lgan uchinchi oltin medalni va umumiy hisobda dunyo chempionligini olib keldi!

Final o‘yinida birinchi va ikkinchi o‘rin taqdirini atigi bir soniya hal qilganini alohida aytib o‘tishim kerak. Raqiblarimiz – Xitoy terma jamoasi o‘z robotini tepaga chiqarib bo‘lishgandi va ularning ballari aniq edi. Bizning natijamiz esa hali so‘roq ostida turgandi. Nihoyat, musobaqa tugashiga bir soniya qolganda robotimiz uchinchi pog‘onaga ko‘tarilishga ulgurdi va bu bizga bosh sovrinni olib keldi. Ishonasizmi-yo‘qmi, o‘sha tarixiy daqiqalarda zalga Janubiy Koreyadagi juda ko‘plab vatandoshlarimiz bizni qo‘llab-quvvatlash uchun kelishgan ekan. Ularning olqishlari bizga chinakam qanot bo‘ldi.

Prezidentimiz Farmoni bilan taqdirlanganimiz butun jamoaga yuksak faxr bag‘ishladi. Albatta, bunday oliy e’tirof zimmamizdagi mas’uliyatni bir necha barobar oshirganini yaxshi anglab turibmiz. Shu bois, yurtimizda muhandislik sohasini yangi bosqichga olib chiqish va iqtidorli tengdoshlarimizni tizimli ravishda oliy maqsadlar sari yo‘naltirish yo‘lida qattiq bel bog‘ladik. Davlatimiz rahbari tomonidan bildirilgan ushbu yuksak ishonchni amaliy natijalar, yangi-yangi zafarlar bilan oqlash uchun bor kuch va salohiyatimizni ishga solamiz.

– G‘alabalar bardavom bo‘lsin!

– Sizga ham rahmat, salomat bo‘ling.

Abbos SHOYIMOV suhbatlashdi.

TILBILIM

SO‘ZLIKDAGI “QO‘NOQ”LAR

Shahardagi xorijiy peshlavhalarni ko‘rib ranjiymiz. Lekin bu muammoning faqat ko‘zga ko‘rinadigan qismidir. Asrlar davomida lug‘atimizga sizib kirgan o‘zlashma so‘zlar adabiy tilimizning qariyb 30-35 foizini tashkil etadi.

Buni yuz yil avval payqagan jadidlar tilimizni soflashtirish uchun izchil kurashgan. Ular arabcha va forscha so‘zlar o‘rniga milliy muqobillar topishda “Devonu lug‘atit-turk”, “Qutadg‘u bilig”, “Hibat ul-haqoyiq”, “Boburnoma” kabi mumtoz asarlar va Alisher Navoiy ijodiga tayangan. Shu maqsadda Abdurauf Fitrat boshchiligidagi “Chig‘atoy gurungi” a’zolari unutilgan noyob so‘zlarni to‘plash uchun qishloqma-qishloq yurib, maxsus ilmiy safarlar uyushtirgan. Tilsevar Elbek esa 1923-yilda “Turkiston” gazetasida “Lug‘at va atamalar bobi”ni ochib, 550 ta o‘zlashma so‘zning sof turkiy muqobilini e’lon qilgan. Keyinchalik, Fitrat, Cho‘lpon va Abdulla Qodiriy kabi adiblar ushbu milliy so‘zlarni o‘z asarlari va maxsus nashrlarida keng qo‘llab, jonli tilga qaytargan. Abdulhamid Cho‘lpon esa o‘zining mashhur “Go‘zal” she’ri bilan sof o‘zbekcha asar yaratish mumkinligini amalda isbotlab bergan.

Xo‘sh, bugun vaziyat qanday? Bugun ham birorta o‘zlashma so‘z qatnashmagan matn yoza olamizmi? Agar har kuni ishlatadigan so‘zlarimizga “til ko‘zoynagi” bilan boqsak, nima bo‘ladi? Masalan, tarixiy evrilishlar ta’sirida lug‘atimizga eng ko‘p hijrat aylagan arabiy kalimalarni olaylik. Ular deyarli har qadamda uchraydi. Bir safar Bosfor bo‘g‘ozi bo‘yida, oftobda toblanib o‘tirgan tunislik qizlarni gapga solgandim. O‘rtada chala-chulpa biladiganim ingliz tili ko‘prik bo‘ldi. Shunda ularga maqtanib, “Men ozmoz arabcha bilaman”, dedim. Misol qilib: *“davlat”, “hukumat”, “hokimiyat”, “maktab”, “kitob”, “daftar”, “ilm”, “dars”, “muallim”, “fan”, “qonun”, “adolat”, “tafakkur”, “muhabbat”, “suhbat”, “mutafakkir”* kabi so‘zlarni aytdim... Ular hayratdan yoqa ushlab qoldi. Lekin suvning ta’mi muz bilan, tilning asosi fe’l bilan... Arab tili o‘zbekchaga to‘g‘ridan to‘g‘ri fe’l olib kirolmagan. Tilimiz undan faqat ot olib, yoniga o‘zimizning “qilmoq” yoki “etmoq” ko‘makchilarini yopishtirib qo‘ygan. Masalan: “muhokama qilmoq”, “taklif etmoq”, “harakat+lanmoq”.

Endi **forsiy** suxandan intiqol aylagan mehmonlar xususida... Ming yillik qo‘shnichilik rishtalari natijasida tilimizga eng chuqur singgan kalomlar: *“devor”, “darvoza”, “oyna”, “ro‘zg‘or”, “bog‘”, “dehqon”, “zamin”, “peshona”, “jigar”, “kaft”, “dono”, “nodon”, “darkor”, “hafta”, “bahor”, “xursand”, “go‘sht”, “chang”, “va”, “agar”, “shoyad”, “balki”.*

Shuningdek, Buyuk Ipak yo‘li va Boburiylar davri sayohatchilari olib kelgan **xitoycha** *“choy”, “shoyi”,* **hindcha** *“murch”, “zanjabil”* kabilar ham bor va bu hali hammasi emas.

Yunonchadan: *“teatr”, “komediya”, “tragediya”, “drama”, “simfoniya”, “anatomiya”, “biologiya”, “geografiya”, “fizika”, “matematika”, “diagnoz”, “klinika”, “alfavit”, “grammatika”.*

Lotinchadan: *“respublika”, “konstitutsiya”, “deputat”, “student”, “doktor”, “professor”, “institut”, “arxiv”, “sekretar”, “dotsent”, “laborant”, “kalendar”, “notarius”, “senzura”.*

Fransuzchadan: *“palto”, “kostyum”, “kafe”, “restoran”, “avangard”, “batalon”, “kapitan”, “armiya”, “garnizon”, “kavaleriya”, “jalyuzi”, “shofyor”, “ekipaj”.*

Yaqinda bir olmon jurnalisti yurtimizga kelib, dabdurustdan ko‘chadagi bir ayolni ko‘rsatdi va: “Hatto shu xonim ham **nemischa** (Deutsch) biladi”, dedi. Hayron bo‘ldik. Shunda u quyidagi so‘zlarni aytdi: *“shtab”, “shturm”, “galstuk”, “buterbrod”, “lager”, “vagon”, “shvabra”, “masshtab”.*

Bular-ku mayli, hatto **italyancha** so‘zlar ham bor: *“bank”, “valyuta”, “opera”, “kassa”, “mafiya”, “sonata”, “solo”, “karikatura”, “fortepiano”, “pasta”* va albatta, *“spagetti”!*

Ispanchaga nima deysiz: *“gitara”, “tomat”, “banan”, “karamel”, “plantatsiya”, “sigara”.*

Ruschani kutib turibsizmi? Masalan: *“stol-stul”, “zavod”, “ochki”.* Bundan tashqari, jargonda shunday so‘zlarimiz borki, hatto “toza ruslar” ham tushunmaydi...

Bugungi raqamli dunyoda **inglizcha**siz qiyin: *“kompyuter”, “sayt”, “blog”, “onlayn”, “menedjer”, “marketing”, “brend”, “startap”, “xaker”, “interfeys”, “chat”, “printer”...* ehe, adog‘i yo‘q...

Ko‘rganingizdek, tilimizda butun dunyodan kelgan so‘zlar ko‘p. Chunki azaldan madaniyatlar chorrahasida yashaganmiz. Qizig‘i, biz chetdan kirgan deb o‘ylaydigan ko‘pgina so‘zlarimiz, aslida, ular kelgan tillarga ham boshqa xalqlardan o‘tgan “sayohatchi”lardir.



Xo‘sh, endi biz bu boy lingvistik merosga qanday munosabatda bo‘lishimiz kerak? Allaqachon “o‘zimizniki” bo‘lib ketgan so‘zlarni chiqarib tashlash durustmas. Biroq ona tilimizning xalqaro nufuzini oshirish, unda yuksak ilmiy va badiiy asarlar yaratish hamda zamonaviy muqobillarni mahorat bilan shakllantirish bugungi avlodning eng oliy vazifasidir. Shunga nima deysiz, aziz tildoshlar?

Shahriyor SHAVKAT

Jadid
adabiy, ilmiy-ma’rifiy va ijtimoiy haftalik gazeta

Bosh muharrir:
Iqbol MIRZO

Muallif fikri tahririyat fikri bilan mos kelmasligi mumkin.

Tahririyatga yuborilgan maqolalar muallifga qaytarilmaydi va ular yuzasidan izoh berilmaydi.

Gazeta 2023-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 195115 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Adadi – 18 157
Shundan:
Kirill yozuvida – 6 591
Lotin yozuvida – 11 566
Media kuzatuvchilar – 90 414
Buyurtma: G – 1040
Hajmi: 4 bosma taboq, A2.
Nashr ko‘rsatkichi – 222.
Tashkilotlar uchun – 223.
1 2 3 4 5 6

Mas’ul kotib: Shuhrat Azizov

Navbatchi muharrir:
Gulchehra Umarova

Sahifalovchilar:
Erkin Yodgorov
Nigora Tosheva



Manzilimiz:
Toshkent shahri,
Shayxontohur tumani,
Navoiy ko‘chasi, 69-uy

Telefonlar:
Qabulxona: (71) 203-24-20
Devonxona: (97) 745-03-69
jadidgzt@mail.ru (71) 203-24-17
Jadid_gazetasi@exat.uz

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.

Bosmaxona manzili:
Toshkent shahri,
Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.

Bosishga topshirish vaqti: 21:00
Bosishga topshirildi: 21:00

Sotuvda narxi erkin.

www.jadid.uz

Muassislar:

O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI

RESPUBLIKA MA’NAVIYAT VA MA’RIFAT MARKAZI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI

MILLIY MASS-MEDIANI QO‘LLAB-QUVVATLASH VA RIVOJLANTIRISH JAMOAT FONDI

“SHAHIDLAR XOTIRASI” JAMOAT FONDI